**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

# A. Baratov

# «S I Y O S I Y G E O G R A F I Y A» fanidan

# AMALIY MASHG' ULOTLAR

(*uslubiy ko'rsatma*)



**Namangan – 2 0 1 9**

**UO'K 511.504.50**
**KBK 74.202**
**P-52**

A.Baratov. Siyosiy geografiya: Oliy o'quv yurtlari «Geografiya» mutaxassislik talabalari uchun uslubiy ko'rsatma. -Namangan, -76 bet.

***Ko'rsatmada talabalar*** Siyosiy geografiya ijtimoiy geografik fan sifatida geografiya yo'nalishi talabalariga jamiyatning siyosiy hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rgatishga xizmat qiladi. U ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fanlari bilan bir qatorda, geosiyosat, siyosatshunoslik, mamalakatshunoslik va boshqa fan tarmoqlari bilan uzviy aloqador. Siyosiy geografiya zamonaviy oliy ta'lim tizimida yuqori malakali geograf mutaxassislar tayyorlashda katta ahamiyatga ega, Amaliy mashg'ulotlarda talabalar dunyo siyosiy xaritasi va unda davlatlarning aks ettirilishi, geosiyosiy salohiyati, geosiyosiy jarayonlar tahlili, tashqi iqtisodiy aloqalar tarkibi va geografiyasini o'rganadi va undan geografiya yo'nalishi talabalari, soha mutaxassislari foydalanishi mumkin.

**MUHARRIR:**

**B.Abduraxmonov**, geografiya kafedrasi o'qituvchisi, Namangan davlat universiteti.

**TAQRIZCHILAR:**

**B.Kamalov**,geografiya fanlari doktori, NamDU professori;
**Sh.Jumaxanov**, geografiya fanlari nomzodi, dotsent, Namangan davlat universiteti

Uslubiy ko'rsatma Namangan davlat Universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 2019 yil __ _________da bo'lib o'tgan yig'ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (Bayonnoma № __)

© Baratov A.S
©Namangan davlat universiteti, 2019.

## SO’Z BOSHI

Respublikamiz taqdiri shubhasiz, xar tomonlama kamol topgan yoshlarning bilim saviyasiga va faolligiga bog’liq. Bugungi kun talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda “Siyosiy geografiya” fanining alohida o’rni bor. Shu sababdan, geograf bakalavrlar tayyorlashni jahon andozalariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislar qilib tayyorlash uchun ularga chuqurlashtirilgan tarzda bilim berish muhimdir.

Siyosiy geografiya bo’yicha ushbu uslubiy ko’rsatmaning asosiy maqsadi talabalarda jamiyatning siyosiy hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini, dunyo siyosiy kartasining shakillanishi va rivojlanish jarayonlari, dunyo mintaqalaridagi geosiyosiy jarayonlar, tashqi iqtisodiy aloqalarni geografik jixatlarini o’rgatadi. Siyosiy geografiya ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fanlari bilan bir qatorda, geosiyosat, siyosatshunoslik, mamalakatshunoslik va boshqa fan tarmoqlari bilan uzviy aloqador. Siyosiy geografiya zamonaviy oliy ta’lim tizimida yuqori malakali geograf mutaxassislar tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Siyosiy geografiya fani – siyosiy geografiyaning tadqiqot obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari, fanlar tizimida tutgan o’rni, ilmiy va amaliy ahamiyati; siyosiy geografiyaning rivojlanishi xususiyatlari; siyosiy jarayonlar va ularning geografik jihatlari; dunyo siyosiy xaritasi va uning rivojlanishi bosqichlari; jahon mamlakatlarining davlat tuzumi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko’ra turlari, geosiyosat, geosiyosiy jarayonlar va ularga ta’sir qiluvchi omillarni, hududiy siyosiy tizimlarning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini, hududiy - siyosiy tizimlar va ularning elementlarini; klassik geosiyosiy g’oyalar va dunyoqarashlarni geografik xususiyatlarini o’rganishda yordam beradi.

Fanning vazifasi - talabalarga siyosiy geografiyaning ilmiy-nazariy asoslari, jamiyatni siyosiy-hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi qonuniyatlari bilan tanishtirish, insoniyatni siyosiy-geografik rivojlanish tarixini o’rgatish, dunyo siyosiy xaritasining shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari, geosiyosiy jarayonlar bilan tanishtirish, ularni tahlil qilish va bashoratlash bo’yicha asosli daliliy fikr – mulohazalar bildirish, tashqi iqtisodiy aloqalar va ularning tadrijiy o’zgarishlari, geografik jihatlarini o’rgatishdan iborat.

## 1-AMALIY MASHG‘ULOT
## DUNYO SIYOSIY XARITASINI CHIZISH VA TAHLIL QILISH

***Mazkur amaliy mashg’ulotning maqsadi*****:** Talabalarda dunyo siyosiy xaritasini axamiyati, shakillanish bosqichlari haqida bilim va ko’nikmalarini shakillantirish

***Tayanch tushunchalar (kalit so’zlar):*** Siyosiy xarita**,** Dunyo siyosiy va iqtisodiy kartasi,Dunyo siyosiy kartasining qadimgi,o’rta davr,yangi davri, Buyuk geografik kashfiyotlar davri,Iqtisodiy karta, Tabiiy karta

**Ish uchun kerakli jihozlar:** Dunyo siyosiy kartasi, amaliy mashg’ulot daftari, yozuvsiz karta, tarqatma materiallar

**Amaliy mashg’ulot topshiriqlari:**

**REJA:**

1.Maruza va adabiyotlardan foydalanib amaliy mashg’ulot daftariga jahon siyosiy kartasio’rniva axamiyati haqida haqida yozma tavsif berish.

2.Atlasdan foydalanib, yozuvsiz kartaga Jahon siyosiy kartasini ishlash.

3.Hozirgi zamon siyosiy kartasining shakllanishi bosqichlari. I va II Jahon urushi hamda 90-yillardagi o’zgarishlarni siyosiy kartaga ta’siri xaqida yozma tavsif berish.

4.Davlatlarning boshqaruv shakillarii va unda ro’y berayotgan o’zgarishlar. Davlatlarning geosiyosiy o’rni, holati va qarashlariga o’rganib chiqish.

5.Dunyo siyosiy kartasini tahlil qilish. Unda maydoni yirik, o’rta va kichik davlatlar guruhini ajratish. Siyosiy xaritadagi davlatlarning iqtisodiy imkoniyatlarini taxlil qilish.

6. Dunyo mamlakatlar ramzlarini (bayroqlari) o’rganib chiqish.

**1-topshiriq yuzasidan kerakli ma’lumotlar:Dunyo siyosiy xaritasining ahamiyati va o’ziga xosligi.** Siyosiy kartaning ahamiyati shundan iboratki, u mamlakatlarning xalqaro

miqyosda tutgan o’rnini, ichki siyosiy - ma’muriy tuzilmasini o’zida aks ettiradi. Aslida har qanday mamlakatlar va xalqlarning butun hayoti ularning siyosiy chegaralari, belgilangan o’z hududlarida o’tadi. Har bir mamlakatning ma’lum bir chegara doirasida ega bo’lganligi dunyoning siyosiy kartasini keltirib chiqaradi. Shunday ekan jahon siyosiy kartasining shakllanishi uzoq davom etadigan tarixiy jarayon bo’lib, u kishilik jamiyati rivojlanish bosqichlarini o’ziga aks ettiradi. U ya’ni jahon siyosiy kartasi asrlar davomida o’zgarib, davlatlarning paydo bo’lishi, parchalanib ketishi, chegaralarining o’zgarishi, yangi yerlarning kashf qilinishi, mustamlaka etilishi, metropoliya va mustamlakalarning paydo bo’lishi, dunyoni bo’lib olish va qayta taqsimlanishni o’zidi aks ettiradi. Shu sababli ham, dunyoning hozirgi zamon siyosiy kartasi–bu siyosiy geografiyaning o’rganish predmeti hisoblanadi. Siyosiy geografiya esa iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bir tarmog’i hisoblanadi.

Dunyoning siyosiy kartasining shakllanish muammolari V.A.Kolosov (1988 y.), K.E.Sarokin (1996 y.), M.M.Golubchik (1998 y.), Y.N.Gladkiy, S.B.Lavrov (2001 y.), Q.Aberqulov (2000 y.) va boshqalarning ishlarida o’z aksini topgan. Ushbu olimlarning fikriga ko’ra, dunyo siyosiy kartasining shaklllanishini quyidagi davrlarga bo’lish mumkin: qadimgi, o’rta asrlar, yangi, eng yangi va hozirgi zamon davrlariga bo’linadi.

Tortishuvlar kelajakda uchta yo’nalish bo’lishini vujudga keltiradi.

1.Davlat yoki maydonni chegaralarga ajratadigan va ma’muriy bo’laklarning tarifini anglatadigan anьanaviy konsepsiyalarni madaniyat geografiyasi,Iqtisodiy geografiyadan farqlaydigan konsentrattsiya yo’nalishlaridir.

2.Yo’nalish siyosiy geografiya izlanishlarining harakati va xilma-xilligini ko’rsatadigan xamda siyosiy geografiyani bo’limlar sifatida o’rganishlarning yangi obьeklarini izlashini kengayish yo’nalishidir.

3.Uchinchi yo’l esa, tinchlik va nizolarni o’rganishlar xisoblanadi.[1]

Dunyo siyosiy xaritasi hoyat o’zgaruvchan xususiyatga ega. U quyidagi asosiy siyosiy-geografik o’zgarishlarni aks ettiradi: muayyan davlatning boshqa davlat bilan qo’shilishi (birlashishi, bir davlatning bo`shqa davlat tarkibiga kirishi v.b); davlatchilikning (siyosiy suverenitetining) yo’qotilishi; davlatlar (mamlakatlar) maydonining-hududlar va akvatoriyalar, ular chegaralarning o’zgarishi; poytaxtning almashishi (o’zgarishi); davlat, mamlakat va poytaxt nomlarining o’zgarishi; davlat bo`shqaruvi shaklining o’zgarishi va boshqalar Bu elementlarnnning barchasi siyosiy geografik xaritaning asosiy mazmunini belgilab beradi.

**2. Siyosiy xaritaning shakllanish bosqichlari.** Hozirgi zamon dunyo siyosiy xaritasi kishilik jamiyatining uzoq davom etgan ijtimoiy-iqtisodiyrivojlanish jarayonlari o’zgarishi,

[1]Martin Jones, Rhys Jones, Michael Woods. An introduction to political geography: space, place and politics. Routledge.London and New-York. 2004. ISBN 0-203-62697-4, ISBN 0-203-663084-X. 14-bet

almashinuvi qonuniyatlarini to’la aks ettiradi. Dunyo siyosiy xaritasi (DS) – tarixiy davrlarning ko’zgusi, materiklar, qit’alar, dunyo siyosiy-iqtisodiy bo’linishining o’ziga xos tasvirdir. Dunyo siyosiy xaritasining shakllanishi quyidagi davrlarga bo’linadi: qadimgi, o’rta asrlar, yangi davr va eng yangi davr.

**Qadimgi davr** (davlatlarning dastlab paydo bo``lishidan milodning V asrigacha) quldorlik tuzumi davrini o’z ichiga oladi; Yer sharida birinchi davlatlarning paydo bolishi va halokatini aks ettiradi. Qadimgi Misr, Karfagen, qadimgi Gretsiya, qadimgi Rim, Orta Osiyoda shakllangan qadimgi Xorazim, Baktriya, Sugda va boshqa davlatlar, Turk hoqonliklari (milloddan avvalgi 207 yildan millodning 216 yiligacha Uluh Xun imperiyasi, Ikkinchi Xun imperiyasi millodning II-IV asri) kabi qadimgi davlatlar dunyo tsivilizatsiyasining rivojlanishiga katta hissa qo’shganlar. Turkiy xalqlarning qadimgi avlodlari bo``lgan xunlar (skif) Markaziy Osiyo, Kaspiy bo``ylari, Shimoliy Kavkazgacha cho’zilgan o’z davlatlarini barpo etganlar. Ular o’z yozuviga ega bo``lishgan, harbiy maqsadlarda xaritalardan foydalanishgan. Xun avlodlari Sharqiy va G’arbiy Yevropaga bo`rib, milodning 347 yilidan 469 yiligacha Xunlar imperiyasini tuzganlar. Shu bilan bir qatorda bu davrda harbiy yurishlar, urushlar davlat chegaralari va hududlari o’zgarishining asosiy sababi bo``lgan.

**Dunyo mamlakatlarari  bayroqlari**




**O’rta asrlar davri** (V-XV asrlar). Bu davrda dunyo siyosiy kartasi feodalizm davri bilan bo`hliq holda shakllangan. Quldorlik imperiyalari parchalanib, ularning o’rnida ko’p sonli katta va kichik feodal davlatlar paydo bo``ldi. Feodal davlatlarning siyosiy funktsiyalari quldorlik davridagi davlatlardagiga nisbatan ancha murakkab va xilma-xil edi. Bu davrda ichki bo`zor shakllandi, regionlarning bo`shqalardan ajralgan holda biqiq yashashiga chek qo’yildi.

Davlatlarning o’zlaridan uzoqda joylashgan hududlarni bosib olishga harakat qilish ishtiyoqi kuchayadi. Dunyo materiklari va qit’alari turli davlatlar o’rtasida taqsimlab olindi. Bu davrda muqaddas Rim imperiyasi, Angliya, Ispaniya, Fransiya, Portugaliya, Kiev Rusi, Hindiston, Xitoy, Eron va Turon- Turkiston o’lkasidagi feodal davlatlar va boshqalar mavjud bo’lgan. SHu jumladan, Orta asrlar dunyo siyosiy xaritasida Movarounnaxrning ilk feodal davlatlari (Suhd, Toxariston, Farhona, Xorazm va bo`shqalar), IX-XIII asrdagi feodal davlatlar (Karluklar, Toxiriylar, Samoniylar Kora’oniylar, Xorzm davlatlari va bo`shqalar), CHihatoy usuli (XIII-XIV asr), Amir Temur va Temuriylar davlatlari (XIV asrning oxiri XV asr bo`shi) katta salmoqqa ega bo``lganlar.

**Buyuk geografik kashfiyotlar**



Bu davlatlar joylashgan o’rni Buyuk ipak yo’li bilan bo`hliq bo``lgan qulayligidan feodalanib, G’arb va Sharq o’rtasidagi aloqalarda o’ziga xos Karvon yo’li "ko’prigi" (aloqachisi) rolini o’ynaganlar. Shu bilan bir qatorda O’rta Osiyo sahrolari ularni ajratuvchi, karvon savdosi uchun to’siq funktsiyani ham bajarganligini ta’kidlash lozim. Dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasi shakllanishining yangi davri (XV-XVI asr orlihidan birinchi jahon urushi tugaganiga qadar) kapitalizm paydo bo``lgan, rivojlangan va qaror topgan bo``tun bir tarixiy davrga to’g’ri keladi.Feodalizmning yemirilishi va kapitalistik munosabatlarning paydo bo``lishi ijtimoiy hayotning barcha sohalarida va dunyo siyosiy xaritasida muhim o’zgarishlar bo``lishiga olib keldi. Kapitalistik iqtisodiyotning rivojlanishida Buyuk geografik kashfiyotlar alohida o’rin

egallaydi. U feodal ishlab chiqarish munosabatlaridan kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlariga o’tishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Buyuk geografik kashfiyotlar qator iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar va voqealarning yakuniy natijasi sifatida tayyorlangan edi. Orta yer dengizi bo`’yi savdosining inqirozi va muomala vositasi hisoblangan oltin va kumishning yetishmasiligi, Turkiya Orta yer dengizi qirhoqlarini zabt etishi Yevropaliklarni Sharqqa, ayniqsa, Hindistonga bo`radigan yangi yo’llarni izlab topishga majbur etdi. "Oltinga tashnalik" esa yangi yerlarni qidirishga undadi. Portugallar Afrika qirhoqlari, Hindiston, Uzoq Sharqda, ispanlar esa Atlantika okeanidan kesib o’tib, Amerikada "oltin" qidirdilar. Buyuk geografik kashfiyotlarning tayyorlanishi Yevropa qit’asining kapitalizm vataniga aylanishi uchun yaratilgan quyidagi shart-sharoitlar bilan uzviy bo`shliqlar.

**Yangi davr** -(XV-XVI asrdan XXasrning I-jahon urushiga qadar) Buyuk geografik kashfiyotlar Yevropa mustamlaka bosqinlari boshlanishiga, xalqaro xo’jalik aloqalarining butun dunyoga tarqalishiga asos bo’ldi.

**Hozirgi zamon jahon siyosiy kartasi**




Bu davrda İspaniya va Portugaliya eng yirik mustamlakachilik davlatlariga aylandi. So’ngra manufaktura kapitalizmining rivojlanishiga bog’liq holda Angliya, Frantsiya, Niderlandiya, Germaniya, keyinchalik AQSh tarix sahnasiga chiqdilar. Mustamlakalar bosib olish kuchaydi.Rossiya imperiyasi ham Turon-Turkiston subregioni davlatlari ham Rossiya imperiyasi mustamlakalariga yoki unga qaram hududlarga aylandi.

XIX asrning oxyirik XX asrning boshlarida dunyo hududlari to’liq bosib olindi. 1900 yilda mustamlakachi davlatlar bosib olgan hududlar maydoni 73 mln kv km (dunyoning 55%

maydoni) bo'lib, ularda 530 mln kishi (dunyo aholisining 35%) yashagan (bunga Rossiya mustamlakalari to'g'risidagi malumotlar kiritilmagan. Chunki, bunday malumotlar xanuzgacha ochiq elon qilinmagan). Masalan Buyuk Britaniya mustamlakalari maydoni 32.7 mln kv km (dunyo maydonining 24.6%), unda yashaydigan aholi 367.6 mln kishi. (dunyo aholisining 24.5%) bo'lgan. Frantsiya mustamlakalari shunga mos ravishda 11 mln kv km (8.3%), 50.1 mln kishi (3.3%), Germaniyaniki - 2.6 mln kv km (2%), 12 mln kishi (0.8%), Belgiyaniki – 2.4 mln kv km (1.8%), 19 mln kishi (1.3%), Niderlandiyaniki - 2.0 mln kv km (1.5%), 37.9 mln kishi (2.5%) bo'lgan. Metropoliya va mustamlakalar maydoni va aholisi o'rtasidagi nisbat mutanosib ravishda quyidagi miqdorni tashkil etgan: Buyuk Britaniyada - 100 va 8.8 marta, Niderlandiyada - 67 va 7.4, Portugaliya - 21 va 1.5, Frantsiya - 21 va 1.3, Belgiya - 80 va 2.8 marta, Daniya - 5 marta va 4.2 %, Germaniya – 5 marta va 21%, İspaniya - 40% va 3.8%, İtaliya -1.7% va 2.2%, AQSh - 24,4% va 11.6%.ni tashkil qilgan.

Shu davrdan boshlab dunyoni qayta bo'lib olish faqat urush va zo'ravonlik vositasida amalga oshishi mumkin edi. Shu sababdan ham dunyoning etakchi mamlakatlari o'rtasida bo'lingan dunyoni qayta bo'lib olish uchun kurash tobora keskinlashdi.

**Eng yangi davr** birinchi jahon urushi tugashi va 1917 yil Rossiyada Oktyabr to'ntarishidan boshlab to hozirgi kunlargacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu davr quyidagi uch bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqich(1917-1939 yillar) dunyo xaritasida SSSR (sotsialistik imperiya) ning paydo bo'lishi, Yevropa va dunyoning boshqa qismlarida muhim hududiy o'zgarishlarning sodir bo'lishi bilan tavsiflanadi. Avstriya-Vengriya imperiyasi parchalandi, ko'p davlatlarning chegaralari o'zgardi. Yangi mustaqil mamlakatlar Polsha, Finlandiya, Chexoslavakiya, Yugoslaviya (Serbiya, Xorvatiya, Slovakiya qirolliklari) va boshqalar paydo bo'ldi. Buyuk Britaniya, Frantsiya, Belgiya, Yaponiya mustamlakalari ko'paydi hamda kengaydi.

Ikkinchi bosqich (1939-1990 yillar) Yevropa siyosiy xaritasida yuz bergan o'zgarishlardan tashqari, sotsialistik eksperimentning kengayishi, (Yevropa va Osiyodagi ayrim davlatlarning sotsialistik yo'lga o'tishi), imperializm mustamlakachilik tizimining yemirilishi oqibatida Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi (Karib regionida), Okeaniyada 100dan ortiq mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi bilan nishonlanadi.

Uchinchi bosqich 1990-yildan boshlanib, hozirga qadar davom etmoqda. Dunyo siyosiy xaritasida butun dunyo hamkorligining ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotiga katta tasir ko'rsatgan yangi sifat o'zgarishlari quyidagilardir:

- 1991 yil sobiq itifoqning parchalani bilan, ittifoqdosh respublikalarning siyosiy mustaqillikka erishdi;
- Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining (MDH) paydo bo'ldi;

- Sharqiy Yevropadagi sobiq sotsialistik davlatlarning  xalq demokratik inqiloblari g'alabasi orqali yangi mustaqil rivojlanish yo'liga o'tidi (1989-90 yillar);

- 1991 yilda harbiy Varshava Shartnomasi Tashkiloti (VSHT), O'zaro İqtisodiy yordam Tashkiloti Kengashi faoliyatining to'xtalishi va uning Yevropa hamda butun dunyodagi siyosiy va iqtisodiy vaziyatga jiddiy tasir ko'rsatisdi;

- Sotsialistik tizimning barbod bo'lisdi;

- 1990 yil 3 oktyabr ikki German davlatining (GFR va GDR) birlashuvi;

- Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasining (YUSFR) parchalanishi oqibatida Sloveniya, Bosniya va Gertsegovina, Makedoniya, Xorvatiya, Yugoslaviya İttifoqi Respublikasi (Serbiya va Chernogoriya tarkibida) siyosiy mustaqilligining elon qilinidi, Sobiq Federatsiyadagi keskin siyosiy bo'hron (krizis) fuqarolar urushiga va millatlararo ziddiyatlarning kuchayishiga, ularning bugungi kunga qadar davom etishiga olib keldi;

- 1990 yil may oyida ikki arab davlati – Yaman Arab Respublikasi (YaAR) va Yaman Xalq Demokratik Respublikasi (YaXDR) – milliy-etnik asoslarda birlashdi (Yaman Respublikasi, poytaxti – Sana shahri);

- 1990-1991 yillarda mustamlakachilikning barbod bo'lishi jarayoni davom etib, quyidagi davlatlar mustaqillikka erishdilar: Namibiya (Afrikada eng so'nggi mustamlaka); Okeaniyada yangi davlatlar – Mikroneziya Federativ Shtatlari (Karolin orollari), Marshall orollari Respublikasi paydo bo'ldi;

- 1993 yil 1 yanvarda sobiq Chexoslovakiya parchalanib, ikki mustaqil davlat - Chexiya va Slovakiya paydo bo'ldi;

- 1993 yil Eritreya davlatining (Efiopiyaning Qizil dengiz qirg'og'idagi sobiq provintsiya) mustaqilligi elon qilindi.

- 2000-yil Sharqiy Timor Indoneziyadan ajralib chiqdi;

- 2008-yil Serbiya  Chernogoriya Federatsiyasi parchalanib, Serbiya va Chernogoriya davlatlari shakllandi;

- 2011-yil Janubiy Sudan Sudandan ajralib chiqdi;

- 2016-yil Qrim Ukraina tarkibidan ajrab, Rossiya tarkibiga qo'shildi.

Mutaxasislarning takidlashiga ko'ra dunyo siyosiy xaritasining kelajakda o'zgarishi avvalo ko'p milatli mamlakatlarda etnik-milliy jarayonlarning rivoji, yo'nalishiga, mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarning tavsifiga bog'liq holda davom etishi mumkin.

**Mavzu yuzasidan quyidagi  savollarga javob bering.**

1.Dunyo siyosiy xaritasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga ta'rif bering.

2.Siyosiy xaritaning shakllanishidagi asosiy bosqichlarni ta'riflang.

3.Dunyo mamlakatlari davlat tuzumiga ko'ra qanday guruhlarga ajratiladi?

4.Monarxiya va respublika nima? Ularning qanday farqlari bor?

5.Unitar va federativ davlatlar deganda qanday davlatlar tushiniladi?

6.Dunyoning kuchli ettilik davlatlariga ta'rif bering.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Martin Jones, Rhys Jones, Michael Woods. An introduction to political geography: space, place and politics. Routledge. London and New-York, 2004.

2. Голубчик М.М. Политическая география мира. -Смоленск, 1998

3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

4. Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.:O'zbekiston, 2017.

5. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- T O'zbekiston 2017.

6.Мангейм Д., Рич Р. Политология: методы и исследования. -М., 1999

**Internet saytlar:**

7.www.Ziyo.net.

## 2-amaliy mashg'ulot:
## JAHON MAMLAKATLARINING SIYOSIY-HUDUDIY TARKIBI BO'YICHA JADVALLAR TUZISH

***Mazkur amaliy mashg'ulotning maqsadi*:** Talabalarda dunyo siyosiy xaritasini siyosiy-hududiy tarkibiva rivojlanishdagi shart-sharoitlar haqida bilim va ko'nikmalarini shakillantirish

***Tayanch tushunchalar (kalit so'zlar):*** siyosiy-hududiy tarkibi**,** siyosiy kuchlar, makrosiyosiy geografik o'rin, mezosiyosiy geografik o'rin, mikrosiyosiy geografik o'rin, ma'muriy-siyosiy chegaralari, davlat chegaralari, davlat tuzumi, Siyosiy ma'muriy tuzilma

**Ish uchun kerakli jihozlar:** Dunyo siyosiy kartasi, amaliy mashg'ulot daftari, yozuvsiz karta, tarqatma materiallar

**Amaliy mashg'ulot topshiriqlari:**

Reja

1.Ma'ruza va adabiyotlardan foydalanib amaliy mashg'ulot daftariga Jahon mamlakatlarining siyosiy-hududiy tarkibi bo'yicha yozma tavsif berish

2.Amaly mashg'ulot daftariga davlat tuzilish chizmasini ishlash

3.Dunyo mamlakatlarini turli belgilariga ko'ra guruhlashtirish.

4.Geografik o'rin xususiyatlariga ko'ra guruhlashtirish.

5.Iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra dunyo mamlakatlarini guruhlarga ajratish

6.Quyida berilgan jadvallarni daftarga ishlang va tahlil qilis.

**A) Maydoni 1 mln.kv.km.dan ortiq bo'lgan davlatlarni quyidagi jadvalda aks ettiring.**

| Mamlakat nomi | Siyosiy partiyalari | Joylashgan qit'asi | Davlat tuzimi |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |

**B) Chegaraning katta qismi dengizga tutash mamlakatlarning 30 tasini jadvalda to'ldiring**

| Mamlakat nomi | Siyosiy partiyalari | Maydoni | Aholisi |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |

**V) Dengizga tutash bo'lmagan mamlakatlarning 30 tasini jadvalda belgilang.**

| Mamlakat nomi | Siyosiy partiyalari | Maydoni | Aholisi |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |

**G) Orollarda joylashgan mamlakatlarning 30 tasini jadvalda aks ettiring**

| Mamlakat nomi | Siyosiy partiyalari | Maydoni | Aholisi |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |

**1-topshiriq yuzasidan kerakli ma'lumotlar:** Jahon mamlakatlarining siyosiy-hududiy tarkibi.

**Hududiy siyosiy tizimlar – Siyosiy geografiyaning asosiy tadqiqot obyekti sifatida**

Hududiy siyosiy tizimlar (HST) – siyosiy geografiyaning bo`sh ilmiy tadqiqot obyekti bo``lishi bilan birga, u mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotining o'zaro hududiy jihatdan uyg'unlashgan turli komponentlaridan tashkil topgan.

Hududiy siyosiy tizimlarni tahlil qilishdan asosiy maqsad jamiyatning siyosiy-hududiy tashkil etilishini muayyan bir davlat doirasida o'rganishdan ibo`rat. Bunda, eng avvalo, quyidagi uchta muhim hududiy tuzilmalarni o'rganishga e'tibor qaratiladi:

1.Davlatning siyosiy-hududiy qurilishi;

2.Siyosiy kuchlar, tashkilotlar, institutlar;

3.Aholining elektoral hulq-atvori, ya'ni oliy va mahalliy hokimiyat organlariga saylovlarda aholining xohish-irodasini o'rganish yoki sotsiologik tadqiq qilish.

Shulardan kelib chiqib, aytish mumkinki, siyosiy geografiya muayyan davlat hududi doirasida ijtimoiy (sinfiy) va siyosiy kuchlarning hududiy taqsimlanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini, ularga ta'sir qiluvchi tarixiy, tabiiy geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar hamohangligida o'rganadi.

Hududiy siyosiy tizimlarning shakllanishi va rivojlanishining asosida hududiylik tamoyili yotadi. Bunda har bir olingan hudud inson hayot faoliyatining, jumladan uning siyosiy hayot faoliyatining maydoni sifatida ahamiyat kasb etadi. HSTlarni tadqiq qilishda muhim bo``lgan elementlardan biri – bu siyosiy geografik o'rindir. Siyosiy geografik o'rin deganda, eng avvalo, muayyan davlatning, davlatlar guruhining, jahon mintaqasining siyosiy birlik sifatida bo`shqa davlatlarga yoki davlatlar guruhiga nisbatan to`tgan o'rniga aytiladi. Agarda tabiiy geografik o'rin tabiiy kartada, iqtisodiy geografik o'rin iqtisodiy kartada aniqlansa, davlatning siyosiy geografik o'rni siyosiy kartada aniqlanadi. Bunda siyosiy kartani qotib qolgan emas, balki, aksincha siyosiy-hududiy jarayonlarning rivojlanishini o'zida aks ettirgan doimiy harakatdagi jarayonlar yig'indisi sifatida tushunish maqsadga muvofiq. Maergoyz I.M. tomonidan ishlab chiqilgan hamda tadqiqotlarda qo'llanilgan iqtisodiy geografik o'rin (Маергойз И.М., Новосибирск, 1986. с. 51-59) metodikasini siyosiy geografik o'rinni tadqiq qilishga qo'llash natijasida siyosiy geografik o'rinning quyidagi uch darajsini ajratib ko'rsatish mumkin:

1.makro siyosiy geografik o'rin;

2.mezo siyosiy geografik o'rin;

3.mikro siyosiy geografik o'rin.

Makro siyosiy geografik o'rin deganda, eng avvalo, muayyan davlatning dunyo siyosiy xaritasida yetakchi rol o'ynayotgan davlatlar yoki regionlarga nisbatan to`tgan o'rni tushuniladi.

Masalan, O’zbekistonning AQSH, G’arbiy Yevropa yoki Yaponiyaga nisbatan to`tgan o’rni, mavqei.

Mezogeografik o’rin deganda esa, muayyan davlatning o’zi o’rnashgan mintaqada to`tgan o’rni tushuniladi. Masalan, Yaponiyaning Sharqiy Osiyoda yoki O’zbekistonning Markaziy Osiyoda to`tgan o’rni, mavqei. Mikrogeografik o’rin deganda muayyan bir davlatning bevosita qo’shni davlatlarga nisbatan to`tgan o’rni tushuniladi.

Yuqoridagilar bilan birga, siyosiy geografik o’rinning quyidagi shakllari ham ajratiladi:

- periferik yoki chuqur, markaziy va o’rtacha siyosiy geografik o’rin;
- subkontinental, kontinental va kontinentlararo siyosiy geografik o’rin (davlatga nisbatan olinganda);
- siyosiy geografik o’rinning qo’shnichilik shakli (qo’shnichilik darajasi o’lchanadi).

Siyosiy geografiya yohud geosiyosat fanining klassik namoyandalari asarlarida geosiyosiy o’rin tushunchasiga atroflicha e’tibor qaratilgan. Ushbu tushuncha zamonaviy siyosiy geografik, geosiyosiy tadqiqotlarda qo’llanilmoqda[2]

Geosiyosiy o’rin ba’zan siyosiy geografik o’rin tushunchasining sinonimi sifatida ham tushuniladi. Geosiyosiy o’rin deganda muayyan mamlakat yoki mintaqaning jahonda to`tgan o’rni tushuniladi.Geosiyosiy o’rin siyosiy geografik hamda iqtisodiy geografik o’rin tushunchalarining umumlashmasi sifatida ham tushuniladi. Bunda davlatning siyosiy geografik o’rniga transport, iqtisodiy, ekologik, demogeografik omillarning ta’sirini inkor qilib bo’lmaydi.

**Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga binoan tasnifi**

| Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga binoan tiplari | Mamlakatlar soni | | Maydoni | | YaMM $ | | Ah j/b YaMM $ | Ah j/b YaMM nisb. indek |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Son | % | mlnkm$^2$ | % | mlrd $ | % | | |
| I.İqtisodiy salohiyati va rivojlanganlik darajasi juda yuqori bo’lgan “sakkizlik davlatlari” | 7 | 3.1 | 21168 | 15.8 | 15861 | 61.7 | 25500 | 5.7 |
| II.İqtisodiy rivojlanganlik darajasi juda yuqori bo’lgan mamlakatlar | 19 | 8.3 | 9197 | 6.8 | 2156 | 8.4 | 25069 | 5.6 |
| III.İqtisodiy va intelektual salohiyati katta bo’lgan, yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar. | 12 | 5.2 | 1596 | 1.2 | 1484 | 5.8 | 10912 | 2.4/2.4 |
| IV.Rekreatsion va intelektual resurslarga, qulay iqtisodiy-geografik o’ringa ega bo’lgan, iqtisodiyoti tez suratlar bilan rivojlanayotgan | 20 | 8.7 | 3060 | 2.3 | 317 | 1.2 | 7204 | 1.6 |

[2] (Сорокин К. Геополитические и геоекономические проблемо России. СПБ., 1995. – С. 10-18).

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| mamlakatlar | | | | | | | | |
| V.Jahonda eng ko'p sonli, iqtisodiy va intelektual salohiyati xilma-xil mulkchilik shakllariga asoslanib rivojlanayotgan mamlakatlar. | 84 | 36.5 | 51251 | 38.2 | 3794 | 14.8 | 2810 | 0.6 |
| VI.Tabiiy va ayniqsa inson salohiyati ulkan, lekin iqtisodiy taraqqiyot darajasi ancha past va suratlar xar xil bo'lgan mamlakatlar | 56 | 24.3 | 28045 | 20.9 | 1984 | 7.7 | 672 | 0.15 |
| VII.Xo'jaligining taraqqiyot darajasi va suratlari juda past, inson resurslariga boy bo'lgan, iqtisodiy qoloq mamlakatlar | 32 | 13.9 | 19971 | 14.8 | 104 | 0.4 | 202 | 0.05 |
| **Jami** | **230** | **100** | **134288** | **100** | **25700** | **100** | **5170** | **1.0** |

Siyosiy geografik o'rin muayyan davlatning dunyo siyosiy xaritasida to`tgan o'rni va mavqei, uning dunyoning rivojlangan davlatlariga, mintaqalariga va qoaversa, siyosiy-harbiy kuchlarga nisbatan joylashuvi va uning siyosiy oqibatlari bilan bo`g'liq bo``lishi bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari bilan ham ahamiyatlidir. Bu yerda siyosiy geografik o'rinning iqtisodiy-ijtimoiy oqibati bo``yicha davlatlar turlicha mavqega ega. Masalan, O'zbekistonning siyosiy geografik o'rnidagi salbiy holat siyosiy notinch vaziyat hukmron bo``lgan Afg'oniston bilan bevosita qo'shnichiligi bilan bo`g'liq bo``lsa, bu bo`rada respublika viloyatlari turlicha mavqega ega. Jumladan, Toshkent viloyatiga nisbatan Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida uning bevosita Afg'onistonga qo'shnichiligi salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagilar bilan birga, davlatning dunyo siyosiy xaritasida o'zini erkin to`tishiga uning keskin kontinental (quruqlikning o'ta ichkarisida) joylashib qolganligi ham salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Agarda, har qanday davlat aslida muayyan siyosiy-hududiy tuzilma ekanligi hamda faoliyat ko'rsatishi e'tiborga olinsa, yuqoridagi holatda mazkur davlat bevosita jahon okeaniga chiqa olmaydi. Bu esa uning transport geografik o'rni bilan bo`g'liq. Bulardan iqtisodiy geografik va s siyosiy geografik o'rin o'zaro uyg'unlashuvini ko'rish mumkin. Davlat hududini siyosiy geografik tadqiq qilishda uning quyidagi parametrlari muhim ahamiyatga ega:

- tuzilishi;
- konfiguratsiyasi;
- ichkari joylashuvi;
- kompakt joylashuvi;
- chegaralanish darajasini baholash;

- ma’muriy-siyosiy chegaralari;
- davlat chegaralari.

Bular davlatning siyosiy geografik o’rni va hududiy-siyosiy tizimlarini integral baholashda muhim ahamiyatga ega.

Siyosiy-ma’muriy chegara hududiy-siyosiy tizimlarning muhim tadqiqot obyektlaridan biridir.

Davlatni hududsiz tasavvur qilib bo``lmaganidek, chegara ham har qanday davlatning atributlaridan biridir.

Siyosiy chegaraning muhim vazifalariga quyidagilar kiradi:

- to’siq qo’yish;
- ajratish;
- filtrlash.

Davlatlarni siyosiy geografik o’rganishda davlat chegarasi muhim ko’rsatkichlardan biridir. Chegaralarning xarakteri, quruqlik, suvlikdan o’tishi, baland tog’ va aksincha tekislik (cho’l) hududlardan o’tgan chegaralarni tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

Hududiy siyosiy tizimlarni tadqiq qilishda aholi muhim o’rinni egallaydi. Bunda, ayniqsa uning demografik tuzilishi, takror barpo bo``lish rejimi, “sifati”, ya’ni madaniy va ma’lumotlilik darajasi, kadrlar tayyorlash va bo`shqalarning o’rni beqiyos.

Aholining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy xususiyatlari hududiy siyosiy tizimlarni rivojlanishini belgilab beradi. HSTlarga aholi joylashuvi ham katta ta’sir ko’rsatadi. Zero, shaharlar, ayniqsa yirik shaharlar HStlarning “yadro”si, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotining muhim “asab tugunlari” bo``lib xizmat qiladi.

3. Siyosiy geografik tadqiqotlarning muhim yo’nalishlaridan biri – bu dunyoning siyosiy xaritasini tadqiq qilish bilan bo`g’langan.

Barcha siyosiy geografik birliklar o’zaro uyg’unlikda dunyo siyosiy xaritasini hosil qiladi hamda quyidagi 2 ta o’zaro teng bo``lmagan guruhga ajratiladi:

1. To’la o’zini bo`shqarish maqomiga ega, suveren davlatlar. Ularning soni hozirda 190 tadan ortiq.

2. O’zini-o’zi bo`shqara olmaydigan, bo`shqa davlatlarga turli darajada qaram davlatlar.

**Davlatning tashkil etilishi shakllari.**Mamlakatlarning davlat tuzumi asosan ikki xil, yani monarxiya va respublika shaklida bo’ladi. **Monarxiya** davlat tuzumining eng qadimgi shakli bo’lib, u oliy davlat hokimiyatining yakka bir shaxsga monarxga (podshoh, qirol, shoh, amir, sulton va h.k.) bo’ysunishini bildiradi. O’z navbatida monarxiyaning ham turli ko’rinishlari mavjud, Masalan, mutlaq monarxiyada davlat boshlig’ining roli cheklanmagan va unga barcha

oliy mansablar taalluqli bo’ladi, davlat rahbarligi avloddan-avlodga meros sifatida o’tib boradi (Birlashgan Arab Amirligi, Qatar, Oman, o’tmishda Rossiya va b.).

Cheklangan monarxiyada davlat boshlig’ining funktsiyasi konstitutsiya yoki parlament orqali cheklangan. Masalan, Shvetsiya konstitutsion monarxiya, Buyuk Britaniya esa parlament monarxiya tuzumiga ega (bu mamlakatda asosiy vazifani premer-ministr bajaradi).

Yuqoridagilardan tashqari, monarxiyaning mutloq teokratik (“teo”-xudo, din) shakli ham mavjud. Bunday tipdagi mamlakatlarda (Vatikan, Saudiya Arabistoni, Bruney) davlat rahbari ayni vaqtda diniy boshliq hisoblanadi. Vatikanda monarx Rim Papasi, Saudiya Arabistoni esa barcha rahbarlik (premer ministr, Oliy sudya, Oliy qo’mondon va hokazo) faqat yakkayu-yagona qirolga bo’ysunadi.

Davlat tuzumining respublika shakli ham ancha qadimiy (San-Marino Respublikasi 301 yilda tashkil topgan).Respublika ham o’z navbatida prezidentva parlament respublikasi shaklida bo’ladi. Birinchisida, saylangan prezident ayni vaqtda davlat va hokimiyat boshlig’idir; u hatto parlamentni oldindan tarqatib yuborish huquqiga ham ega. Respublikaning bunday ko’rinishi AQSh, Braziliya, O’zbekiston, Qozog’iston va boshqa davlatlarda amal qiladi.

Parlamentar respublikada prezident huquqi biroz cheklangan bo’lib, unda hokimiyat parlamentga shaklan bo’ysunsada, u amalda asosiy boshqaruvchi shaxs hisoblanadi (Germaniya Federativ Respublikasi, Malayziya, Hindiston, Avstriya, Polsha, Italiya va b).

Hozirgi davrdayer sharida respublika tuzumidagi davlatlar ko’pchilikni tashkil qiladi.Ularning umumiy soni 150 ga yaqin, monarxiya tuzumiga esa taxminan 45 ta davlat kiradi.

Davlat tuzumi mamlakatning mamuriy-hududiy tuzilishi bilan ham bog’liq. Odatda, davlatlar mamuriy-hududiy tuzulishining ikki-unitar va federativ shakli mavjud. Unitar davlatlarda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organ bitta, konstitutsiya ham yagona. Ularning ichidagi mamuriy birliklar, masalan, viloyat, rayon kabilarning huquqi uncha katta emas. Bunday davlatlar soni juda ko’p: Fransiya, Ukraina, Turkmaniston, Belorus, Qozog’iston, Qirg’iziston, Yaponiya.

Federativ davlatlarning ichki siyosiy tuzilishi ancha murakab: buyerda “davlat ichida davlatlar” mavjud bo’ladi. Yagona davlat tarkibidagi respublika, shtat, okrug,yer, kanton, provintsiya kabilar o’zlarining konstitutsiyasi, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlariga ega. Ularning siyosiy jihatdan mavqei ham ancha yuqori.

Chunonchi, AQSh, Braziliya, Hindiston, Meksika kabilarga o’xshash 20 ga yaqin federativ davlatlar tarkibida shtatlar (“state”, shtat - davlat demakdir),

GFRda federal yerlar (“bundeslend” – federal yerlar»,

Rossiyada respublikalar;

O’zbekistonda, asosan, viloyatlar mavjud.

**Davlat chegarasi haqida tushuncha.** Davlat mamuriy tuzilishining konfederatsiya shaklida uning ichki birliklari o’zlarining mustaqilligini to’la saqlagan bo’ladi. Bunday geosiyosiy tizim Shvedsariyada kuzatiladi; Shvedsariya konfederatsiyasi alohida kantonlardan iborat.

Mamlakatning ichki jihatdan tashkil etish va boshqarish ko’proq uning hududini qiyofasiga va geoshakliga ham bog’liq. Shu nuqtai nazardan mamlakat hududining ixcham (kompakt) bo’lgani maqul. Bunga misol qilib, Fransiya yoki Polsha davlatlarini keltirish mumkin. Norvegiya, Portugaliya, Shvetsiya yoki Chili davlatlarining hududi esa «cho’zinchoq» uzoq masofaga cho’zilgan. Bunday holat, albatta, transport va boshqa infrastruktura tizimini rivojlantirish aholiga xizmat ko’rsatish va hatto harbiy strategik jihatdan ham qulay emas.

Xuddi shu nuqtai nazardan davlatlar hududining yaxlit, bir butun yoki anklav, eksklav shakllariga ega bo’lishi ham malum mazmunga ega.Anklav shakli mamlakat hududining boshqa mamlakat hududiga suqilib kirishi (dengiz qo’ltig’i, yoki yarim orollarga o’xshab) demakdir. Bunga misol Toshkent viloyatining chekka shimoli-Sharqiy qismi, Tojikiston Respublikasi So’g’d viloyatidagi Zafarobod tumanlarini kiritish mumkin. Eksklavda esa davlat chegarasining yaxlit emasligi, uning kichikroq hududini asosiy hududdan tamomila ajralib qolgan holati tushuniladi. Masalan, AQShning Alyaska va Gavayi orollari (49-, 50-shtatlari), o’zimizning O’zbekistondagi Farg’ona viloyatining Shohimardon qishlog’i, yoki So’x tumani, Rossiya Federatsiyasining Kaliningrad viloyati va b.).

Siyosiy geografiyada davlat chegarasi, uning shakli ham katta ahamiyat kasb etadi. Odatda, bu chegaralar ikki vazifani bajaradi-ular hududlarni birbiridan ajratib, barer sifatida va ayni vaqtda ikki davlatni bog’lab, ular o’rtasida, iqtisodiy integratsiya maydoni darajasida xizmat qilishadi. Shu bilan birga chegaraga tutash rayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi o’ziga xos bo’ladi.

Davlatlarning siyosiy geografik o’rni va siyosiy tuzimi ham har xil. Siyosiy geografik o’rin deganda malum bir davlatning boshqa (qo’shni va jahon hamjamiyati) davlatlariga hamda yirik davlatlararo harbiy va siyosiy uyushmalarga, Jaxon okeaninga nisbatan tutgan o’rni tushuniladi. Jumladan, O’zbekiston Respublikasining hozirgi siyosiy geografik o’rnini uncha qulay deb bo’lmaydi.

Dunyo siyosiy xaritasida tom manodagi koloniya va mustamlakalar deyarli yo’qolgan bo’lsada, siyosiy jihatdan qaram yoki bo’ysunuvchi hududlar hanuzgacha bor. Bularga Portugaliya, Daniya, Fransiya, AQSh, Buyuk Britaniya kabi davlatlarningyer sharining turli chekkalarida qolgan avvalgi mustamlakalari, kichik to’la mustaqil bo’lmagan hududlari kiradi. Ular, masalan, Janubi-Sharqiy Osiyo, Okeaniya, Karib dengizi havzasida joylashgan.

Shu o'rinda Buyuk Britaniya boshchiligidagi Hamdo'stlik davlatlariga ham to'xtalib o'tish lozim. Malumki, "Buyuk Britaniya" dastavval 1707 yilda Angliya, Shotlandiya va Irlandiyani qo'shilishidan tashkil topgan edi. 1931 yilda vujudga kelgan Buyuk Britaniya Hamdo'stligiga hozirgi vaqtda 50 dan ortiq davlatlar, shu jumladan, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Kanada kiradi (umumiy maydoni 30 mln. $km^2$, aholisi esa dunyo aholisining 1/6 qismini tashkil qiladi). Hamdo'stlik tarkibidagi tuzumga ega bo'lgan davlatlar oliy hokimiyat sifatida Buyuk Britaniya qirolichasiga bo'ysunadi.

**Mavzu yuzasidan quyidagi savollarga javob bering.**

1.Dunyo siyosiy xaritasidagi mamlakatlarning joylashgan o'rniga ta'rif bering?.

2.Siyosiy xaritadagi mamlkatlarning davlat doshqaruv shakillarini ayting?.

3.Dunyo mamlakatlari davlat tuzumiga ko'ra qanday guruhlarga ajratiladi?

4.Geografik o'rin xususiyatlariga ko'ra mamlakatlarni qanday guruhlashtiriladi.?

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1.Martin Jones, Rhys Jones, Michael Woods. An introduction to political geography: space, place and politics. Routledge. London and New-York, 2004.

2.Голубчик М.М. Политическая география мира. -Смоленск, 1998

3.O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

4.Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.:O'zbekiston, 2017.

5.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- T O'zbekiston 2017.

6.Мангейм Д., Рич Р. Политология: методы и исследования. -М., 1999

## 3 - amaliy mashg'ulot:
## JAHON MAMLAKATLARINI DAVLAT HUDUDI SHAKLIGA KO'RA TURLARGA (OROL, YARIMOROL, UZUNCHOQ, EKSKLAV, ANKLAV, KOMPAKT) AJRATISH

***Mazkur amaliy mashg'ulotning maqsadi*:** Talabalarda Jahon mamlakatlarini davlat hududi shakliga ko'ra turlari (orol, yarimorol, uzunchoq, eksklav, anklav, kompakt) haqida bilim va ko'nikmalarini shakillantirish

***Tayanch tushunchalar (kalit so'zlar):*** Orol, Yarim orol, Anklav, eksklav, siyosiy-hududiy tarkibi**,** ma'muriy-siyosiy chegaralari,davlat chegaralari, davlat tuzumi,Siyosiy ma'muriy tuzilma

**Ish uchun kerakli jihozlar:** Dunyo siyosiy kartasi, amaliy mashg'ulot daftari, yozuvsiz karta, tarqatma materiallar,chizmalar

**Amaliy mashg'ulot topshiriqlari:**

Reja

1.Ma'ruza va adabiyotlardan foydalanib, aaliy mashg'ulot daftariga Jahon mamlakatlarini davlat hududi shakliga orol, yarimorol, uzunchoq, eksklav, anklav, hududlariga tavsif yozish

2. Jahon mamlakatlarini davlat hududi shakligaga doir jadvalni to'ldirish.

| Mamlakat nomi | Joylashgan hududi | Maydoni | Aholisi | Davlat hududining shakli |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |

3. To'ldirilgan jadvaldan foydalanib,Jahon mamlakatlarini hududining kattalii bo'yicha guruxlarga ajratish va tahlil qilish.

4.JadvalgaJahon mamlakatlarini davlat hududi shakliga ko'ra turlarga ajratish

| Mamlakat nomi | Joylashgan materigi | Orol | Yarimorol | Davlat boshqaruv shakli |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |

5.Amaliy mashg'ulot daftariga Farg'ona vodiysidagi eksklav, anklav hududlar haqida yozma tavsif berish.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1.Martin Jones, Rhys Jones, Michael Woods. An introduction to political geography: space, place and politics. Routledge. London and New-York, 2004.

2.Голубчик М.М. Политическая география мира. -Смоленск, 1998

**Qo'shimcha adabiyotlar**

3.O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

4.Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.:O'zbekiston, 2017.

5.Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- T O'zbekiston 2017.

6.Мангейм Д., Рич Р. Политология: методы и исследования. -М., 1999

## 4-amaliy mashg'ulot:

## JAHONNING "KATTA YETTILIK" DAVLATLARINING SIYOSIY-HUDUDIY TUZILISHI VA GEOSIYOSIY HOLATINI

***Mazkur amaliy mashg'ulotning maqsadi*:** Talabalarda Jahonning yetakchi yettilik davlatlarining siyosiy-hududiy tuzilishihaqida bilim va ko'nikmalarini shakillantirish

***Tayanch tushunchalar (kalit so'zlar):*** siyosiy-hududiy tuzilma**,** yettilik davlatlari, geografik o'rin, ma'muriy-siyosiy chegaralari, davlat chegaralari, davlat tuzumi, Siyosiy ma'muriy tuzilma

**Ish uchun kerakli jihozlar:** Dunyo siyosiy kartasi,amaliy mashg'ulot daftari,yozuvsiz karta,chizma

**Amaliy mashg'ulot topshiriqlari:**

Reja

1.Ma'ruza va dabiyotlardan foydalanib, amalmy mashg'ulot daftarigaJahonning yetakchi yettilik davlatlarining siyosiy-hududiy tuzilishi haqida yozma tavsif berish va geosiyosiy xolatini tahlil qilish.

2.Jahonning yetakchi yettilik davlatlarining davlat boshqaruv shakillarini o'rganib chiqish.

3.Jahonning yetakchi yettilik davlatlarining jaxonning siyosiy maydonida va iqtisodiyotda tutgan o'rnini o'rganib chiqish.

4.Lotin Amerikasidagi yetakchi mamlakatlarAmerika Qo'shma Shtatlari va Kanadaning ma'muriy-hududiy tuzilishini o'rganib chiqing va quyidagi AQShning-shtatlar nomini to'ldirish.

5.Ma'ruza va dabiyotlardan foydalanib, amalmy mashg'ulot daftariga Yevropadagi yetakchi davlatlar Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya mamlakatlarini siyosiy-hududiy va iqtisodiy tuzilmasiga tavif berish.

6. Ma'ruza va dabiyotlardan foydalanib, amalmy mashg'ulot daftariga Yaponiyani siyosiy-hududiy va iqtisodiy tuzilmasiga tavif berish

## Jahonning "katta yettilik" davlatlari

| Davlatlar | Jami band aholi | Shu jumladan | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Sanoat va qurilishda | Q/x | Transport va aloqada | Savdo, texnika taminoti, | Boshqa tarmoqda |
| AQSh | 100 | 24 | 3 | 6 | 21 | 46 |
| Yaponiya | 100 | 34 | 6 | 6 | 22 | 32 |
| Germaniya | 100 | 38 | 3 | 6 | 17 | 36 |
| Frantsiya | 100 | 29 | 5 | 7 | 17 | 42 |
| Buyuk Britaniya | 100 | 27 | 2 | 6 | 20 | 45 |
| İtaliya | 100 | 32 | 8 | 5 | 22 | 33 |
| Kanada | 100 | 23 | 4 | 6 | 24 | 43 |

Yaponiya YaIM jixatidan dunyoda ikkinchi o'rinda turadi. Osiyo qit'asidan sharqda joylashgan yapon arxipelagi ingichka yoy ko'rinishida 3800 kilometrga cho'zilgan. Yaponiyaning umumiy maydoni 376 815 kv.km.ga teng. Arxipelag to'rtta asosiy orol - Xonsyu, Xokkaydo, Kyusyu, Sikoku va 3900 ga yaqin mayda orollardan iborat.

Yaponiyaning poytaxti 12 mln.dan ortiq aholiga ega bo'lgan Tokio shaxridir. Yaponiya aholisi 1999 yilga kelib 126486 ming kishini tashkil etdi. Aholi soni jixatidan Yaponiya xozirgi kunda jaxonda oltinchi o'rinda turadi. Aholi zichligi - bir kvadrat kilometrga 321 kishi to'g'ri keladi. Hozirgi kunda Yaponiyaning 45 foiz aholisi uch yirik megapolis - Tokio, Osaka, Nagoya va uning atrofidagi prefekturalarda yashaydi.Yaponiya - poytaxt, ya'ni Tokio prefekturasi bilan birgalikda 47 prefekturaga bo'lingan. Maxalliy boshqaruv idoralari - xar biri deputatlar yig'iniga ega bo'lgan prefektura, shahar, posyolka va qishloq boshqaruvi idoralari hisoblanadi.

Davlat tuzumi - Yaponiyada konstitutsiyali monarxiya xukmron. 1947 yildan beri amalda bo'lgan konstitutsiyaga ko'ra imperator "davlat va xalq birdamligi"ning ramzi xisoblanadi. Uning xaq-xuquqlari xalq tomonidan belgilanadi, u suveren xukmronlikka ega. 1946 yil 3 noyabrda qabul qilingan va 1947 yil 3 maydan kuchga kirgan konstitutsiyada Yaponiya xalqi tinchlik va demokratiya oliy maqsadlariga amal qilishga va'da bergan.

Konstitutsiyaga muvofiq, Yaponiya urush harakatlari, taxdid yoki xalqaro kelishmovchiliklarni xal etishda qurolli kuchlardan foydalanishdan bosh tortgan. Insonlarning asosiy xuquqlari abadiy va buzilmas deb kafolatlangan.

Yaponiya foydali qazilmalarga boy mamlakat emas. Bo'r va toshko'mir mavdud bo'lsa-da xo'jalik axamiyatiga molik, qishloq xo'jaligi resurslari xam xavas qiladigan darajada emas. 13 foiz yer maydonigina qayta ishlashga yaraydi, xolos. Jaxon okeani resurslariga kelsak,

Yaponiyaning bu boradagi mavqei ulkan. Mamlakat baliq va dengiz maxsulotlari ishlab chiqarishi bo’yicha jaxonda yetakchilardan biri sanaladi.

Yuqorida Yaponiya misolida tavsif berildi.Quyida karta hamda jadvallar boshqa davlatlarni ham yoritib bergan.

## Amerika Qo’shma Shtatlari ma’muriy –xududiy bo’linmasi









**Buyuk Britaniya**




**Italiya**




**Germaniya**




**Fransiya**

## Jahonning “katta yettilik” davlatlari

| Davlatlar | Elektr energiya | | Neft qazib olish | | Tab.gaz qazib olish | | Ko’mir qazib olish | | Po’lat eritish | | Avtomobil i/ch | | Sement i/ch | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mlrd kvt/s | % | mln t | % | mlrd $M^3$ | % | mln t | % | mln t | % | mln dona | % | mln t | % |
| AQSh | 3800 | 31,7 | 350 | 10,6 | 58 | 2,4 | 900 | 18,0 | 90 | 13,8 | 8 | 22,9 | 75 | 6,8 |
| Yaponiya | 910 | 7,6 | 1 | 0,0 | 3 | 0,1 | 7,5 | 0,2 | 100 | 15,4 | 9 | 25,7 | 90 | 8,2 |
| Germaniya | 550 | 4,6 | 3 | 0,1 | 2 | 0,1 | 300 | 6,0 | 40 | 6,2 | 4 | 11,4 | 40 | 3,6 |
| Fransiya | 513 | 4,3 | 3 | 0,1 | 4 | 0,2 | 10 | 0,2 | 20 | 3,1 | 3,5 | 10,0 | 22 | 2,0 |
| B. Britaniya | 345 | 2,9 | 98 | 3,0 | 75 | 3,1 | 70 | 1,4 | 17 | 2,6 | 1,5 | 4,3 | 9 | 0,8 |
| İtaliya | 240 | 2,0 | 5 | 0,2 | 25 | 1,0 | 1 | 0,0 | 30 | 4,6 | 1,4 | 4,0 | 40 | 3,6 |
| Kanada | 577 | 4,8 | 85 | 2,6 | 16 | 0,7 | 75 | 1,5 | 16 | 2,5 | 1,5 | 4,3 | 10 | 0,9 |
| **Jami** | **12000** | **100** | **3300** | **100** | **2400** | **100** | **5000** | **100** | **650** | **100** | **35** | **100** | **1100** | **100** |






**Kanada** **Yaponiya**


**Adabiyotlar ro'yxati:**

1.Martin Jones, Rhys Jones, Michael Woods. An introduction to political geography: space, place and politics. Routledge. London and New-York, 2004.

2.Голубчик М.М. Политическая география мира. -Смоленск, 1998

**Qo'shimcha adabiyotlar**

3.O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

4.Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.:O'zbekiston, 2017.

5.Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- T O'zbekiston 2017.

6.Мангейм Д., Рич Р. Политология: методы и исследования. -М., 1999


## 5-amaliy mashg'ulot:

## DUNYO SIYOSIY XARITASIDAGI "OG'RIQ NUQTALAR"NI SIYOSIY-GEOGRAFIK TAHLIL QILISH

***Mazkur amaliy mashg'ulotning maqsadi*:** Dunyo siyosiy xaritasidagi "Og'riq nuqtalar"ni siyosiy-geografik xususiyatlari haqida bilim va ko'nikmalarini shakillantirish

***Tayanch tushunchalar (kalit so'zlar):*** og'riq tuqtalar, siyosiy-hududiy tuzilma**,** terrorizm, Ekstimiktk harakatlar, geografik o'rin, ma'muriy-siyosiy chegaralar, davlat chegaralari, davlat tuzumi, Siyosiy ma'muriy tuzilma

**Ish uchun kerakli jihozlar:** Dunyo siyosiy kartasi,amaliy mashg'ulot daftari,yozuvsiz karta,chizma

**Amaliy mashg'ulot topshiriqlari:**

Reja

1.Ma'ruza va adabiyotlardan foydalanib amaliy mashg'ulot daftariga Dunyo siyosiy xaritasidagi "Og'riq nuqtalar"(Suriya, Ukraina, Isroil-Falastin,Avg'oniston)ni siyosiy-geografik xususiyatlari haqida yozma tavsif berish

2. Dunyo siyosiy xaritasidagi "Og'riq nuqtalar"ni vujudga keltiruvchi omillar - diniy va hududiy qarama-qarshiliklar, ekologik muommolarni o'rganib chiqish

3.Rossiya va AQSh munosabatlari va unda vujudga kelayotgan muommolar haqida daftarga yozma tavsif yozish

4.Bugungi  Dunyo siyosiy xaritasidagi "Og'riq nuqtalar sifatida e'tirof etilayotgan Yaqin sharq,Shimoliy Koreya, Eron Amerika Qo'shma shtatlari munosabotlarini o'rganib chiqish va tahlil qilish.

5. Dunyo siyosiy xaritasidagi ekologik muommolar keskin tus olgan hududlar haqida yozma tavsif berish.

6.Globallashuv jarayoni jahon tarraqiyotining muhim jihatini tahlil qilish.

7.Markaziy Osiyoda globallashuv jarayonlari haqida yozma tavsif berish.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1.Martin Jones, Rhys Jones, Michael Woods. An introduction to political geography: space, place and politics. Routledge. London and New-York, 2004.

2.Голубчик М.М. Политическая география мира. -Смоленск, 1998

3.O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

4.Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.:O'zbekiston, 2017.

5.Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- T O'zbekiston 2017.

6.Мангейм Д., Рич Р. Политология: методы и исследования. -М., 1999

## 6-amaliy mashg'ulot:

## DUNYO MINTAQALARINING SIYOSIY XARITASINI TAHLIL QILISH

***Mazkur amaliy mashg'ulotning maqsadi*:** Dunyo mintaqalarining siyosiy xaritasini haqida bilim va ko'nikmalarini shakillantirish

***Tayanch tushunchalar (kalit so'zlar):*** Mintaqa, hudud, Xorijiy Osiyo, Lotin Amerika, mintaqaviy iqtisodiyot, mintaqaviy boshqaruv, jahon xo'jaligi, geosiyosiy yondashuv, iqtisodiy-geografik rayon, suveren davlat, siyosiy-hududiy tuzilma**,** chegara, geografik o'rin, ma'muriy-siyosiy chegaralar, davlat chegaralari, davlat tuzumi, siyosiy-ma'muriy tuzilma

**Ish uchun kerakli jihozlar:** Dunyo siyosiy kartasi, jadval, amaliy mashg'ulot daftari,yozuvsiz karta,chizma,

**Amaliy mashg'ulot topshiriqlari:**

Reja

1.Ma'ruza va adabiyotlardan foydalanib amaliy mashg'ulot daftariga Dunyo siyosiy xaritasidagi mintaqalar Yevropa, Xorijiy Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi, Avstraliya va Okeaniya makro mintaqalar haqida yozma tavsif berish.

2.Berilgan jadvalan foydalanib, Dunyo mintaqalaridagi davlatlrning tavlat tuzimi,boshqaruv shakillarini tahlil qilish.

3. Dunyo mintaqalarining joylashuv jadvalini to'ldirish

| Dunyo mintaqalari | Davlatlar nomi | Maydoni | Aholisi | Davlat boshqaruv shakli |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| | | | | |

4. Dunyo mintaqalari – Yevropa va Xorijiy Osiyo mintaqasining geosiyosiy saloxiyati va jaxon xo'jaligida tutgan o'rni haqida daftara yozma tavsif bering

5.Dunyo xo'jaligida Afrika, Lotin Amerikasini qiyosiy taqqoslash

6. Dunyo siyosiy xaritasida Avstraliya va Okeaniya makro mintaqalarini tahlil qilish

7.Evropa siyosiy kartasini yozuvsiz kartaga ishlash.

**Dunyo mintaqalarining joylashuvi**




**Yevropa mintaqasi**




**1-topshiriq yuzasidan kerakli ma’lumotlar:**«Hudud» - yer sharining ma’lum bir qismi bo’lib, o’zining geografik holati va boshqa tabiiy belgilariga ko’ra boshqa hududlardan ajralib turadi. Hudud tushunchasini akvatoriya (yer sharining suv bilan qoplangan bir qismi), aerotoriya (yer shari atmosferasining bir qismi) kabi tushunchalar to’ldiradi. Ayni vaqtda hudud, akvatoriya va aerotoriya tushunchalari birgalikda geotoriya tushunchasini hosil qiladi. Hudud tushunchasining g’oyat murakkab va kattaligi uni mintaqalarga bo’lib, o’rganishni taqozo qiladi.

Mintaqa (region) - lotincha so’z bo’lib, ilmiy iste’molga ingliz tilidan kirib kelgan va 100 dan ortiq turli mazmunda talqin qilinishi bilan ajralib turadi.

| Dunyo mintaqalari aholi zichligi | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Mintaqa va regionlar | 1950 | 1990 | 1995 | 1999 | 2025 |
| **Butun dunyo** | **19,4** | **40,3** | **43,8** | **46,0** | **63,8** |
| Yevropa | 74,4 | 97,0 | 101,9 | 102,5 | 103,5 |
| Osiyo | 45,1 | 100,7 | 111,3 | 116,3 | 159,3 |
| Afrika | 7,6 | 21,8 | 24,3 | 27,5 | 51,0 |
| Shimoliy Amerika | 11,0 | 21,4 | 22,8 | 23,8 | 31,0 |
| Janubiy Amerika | 6,4 | 17,1 | 18,3 | 19,6 | 26,4 |
| Avstraliya va Okeaniya | 1,5 | 3,1 | 3,3 | 3,7 | 4,6 |

**Dunyo mintaqalari aholining dini**

| Din | Etiqod qiluvchilar soni (mln ta) | Tarqalgan mintaqalari va mamlakatlari |
|---|---|---|
| Xristianlik Shu jumladan | 1259 dan ortiq | Frantsiya, İspaniya, Portugaliya, İtaliya, Avstriya, Belgiya, İrlandiya, Polsha, Litva, Ukraina, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Sloveniya, Xorvatiya, AQSh, Kanada, Lotin Amerikasi mamlakatlari, Filippin, Markaziy va Janubiy Afrika mamlakatlari, Kipr, Koreya, Yaponiya, Xitoy |
| Katoliklik | 800 | |
| Protestantlik | 350 | Shimoliy Yevropa mamlakatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, Shveytsariya, Latviya, Estoniya, AQSh, Avstraliya, Yangi Zelandiya, JAR, Markaziy va Janubiy Afrika mamlakatlari, Koreya, Yaponiya, Xitoy |
| Pravoslavlik | 100 | Rossiya, Ukraina, Belorus, Moldova, Gruziya, Bolgariya, Ruminiya, Serbiya va Chernogoriya Federatsiyasi, Gretsiya, Kipr |
| İslom Shu jumladan | 1000 dan ortiq | Albaniya, Bosniya va Gersogovina, Makedoniya, Rossiya, Qozog’iston, O'zbekistonQirg’iziston, Tojikiston, JanubiG’arbiy Osiyo mamlakatlari (Eron, Ozarbayjondan tashqari), Shimoliy, G’arbiy va Sharqiy Afrika mamlakatlari, Pokiston, Afg’oniston, Bangladesh, Malayziya, İndoneziya, Hindiston, Xitoy, Filippin |
| Sunniylik | 900 dan ortiq | |
| Shialik | 100 ga yaqin | Eron, Ozarbayjon, İroq, Yaman |
| Buddizm va lamaizm | 400 dan ortiq | Xitoy, Mo’g’iliston, Yaponiya, Myanma, Tailand, Vetnam, Kambodja, Laos, Malayziya, Shri-Lanka, Koreya, Rossiya |
| İnduizm | 520 | Hindiston, Nepal, Shri-Lanka |
| Konfutsia | 180 | Xitoy |
| Sintoizm | 70 | Yaponiya |
| Mahalliy-ananaviy dinlar | | G’arbiy, Markaziy, Sharqiy, Janubiy Afrika mamlakatlari, Janubiy Amerika, Okeaniya, İndoneziya |

Keyingi yillarda ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlarda mintaqa tushunchasii jtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-tarixiy, siyosiy-harbiy va ekologik tizim sifatida quyidagi: 1) dunyo xo’jaligi va umumbashariy muammolar, giosiyosiy va hududiy takror ishlab chiqarish; 2) megaiqtisodiyotda - makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy tahlil yondashuvlarida keng qo’llanilmoqda.

**Yevropa makromintaqasi. Maydoni – 5886,0 ming km$^{2}$.**




Yevropa – qit'a, Osiyo bilan birgalikda yagona Yevrosiyo materigini tashkil qiladi. Yevropa hududida 39 ta davlat joylashgan, bu mamlakatlar hududlarining katta-kichikligi, aholisi soni, tabiiy shart-sharoiti va foydali qazilmalari, davlat tuzilishi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Bu mamlakatlarning ko'pchiligi davlat tuzilishiga ko'ra respublika, 12 ta mamlakat esa monarxiya shaklida (Andorra bahsli bo'lib, monarxiya deb hisoblansada, amalda respublikadir). Yevropa makroiqtisodiy xalqaro siyosiy hayotda va dunyo xo'jaligi tizimida muhim rolь o'ynab keladi.

Nafaqat bugungi kunda, balki kishilik jamiyati taraqqyotining ko'p ming yillik tarixida ham Yevropani shartli ravishda 2 ta mintaqaga, ya'ni G'arbiy Yevropa va Sharqiy Yevropaga (Markaziy va Sharqiy yoki Markaziy-Sharqiy Yevropa) bo'lish mumkin (MDH mamlakatlariga nisbatan).

**Osiyo makromintaqasi. Maydoni – 27,6 mln. km$^{2}$**

Xorijiy Osiyoga (MDH mamlakatlariga nisbatan) Yevrosiyo materigining janubiy qismi, janub, Sharq va janubi-Sharqdagi orollar (Andaman, Moldiv, Lankadiv, Shri-Lanka, Yaponiya, Tayvanь,Filippin, Katta va Kichik Zond, Malakka) kiradi.

Makromintaqada siyosiy kartasida 38 suveren mustaqil davlat bo'lib, ularning ko'pchiligi rivojlanayotgan mamlakatlardir. Xalqaro mehnat taqsimotida mineral xom ashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti bilan ishtirok etadi. Ayniqsa, neftь, tabiiy gaz, qalayi, choy, jun, tabiiy kauchuk ishlab chiqarish va uni eksport qilishdagi hissasi yuqoridir.

Makromintaqa iqtisodiy-geografik o'rnining o'ziga xos xususiyatlari:

-ko'pchilik Xorijiy Osiyo mamlakatlarining dengiz bo'yi holati qulay bo'lib, Atlantika, Hind va Tinch okeani suvlari va dengizlari orqali xalqaro suv yo'llarga chiqish imkoniyatining kattaligi (faqatgana Mug'uliston, Afg'oniston, Nepal, Butan va Laos mamlakatlari makromintaqa ichkarisida joylashgan);

- tabiiy shart-sharoitlar negizida qulay agroiqlimiy xususiyatlar (shimolida mo''tadil iqlim, qolgan hududlarida subtropik, tropik va ekvatorial iqlim) subtropik va tropik iqlim mintaqalarida yiliga ikki-uch marta hosil olish imkonini berishi bilan ajralib turadi.

## Osiyo mintaqasi



Xorijiy Osiyo makromintaqasida dunyodagi 50% dan ortiq aholi to'plangan bo'lib, buning asosiy qismi qishloq aholisidir. Erkaklar ayollarga nisbatan ko'p. Aholi har bir km$^2$ hududga 130 kishidan to'g'ri keladi va juda notekis joylashgan. Makromintaqaning 10% hududida 75% aholi joylashgan. Makromintaqadagi aholining asosiy qismi 4 ta mamlakat - Xitoy, Hindiston, Indoneziya va Yaponiyada yashaydi. Mo'g'iliston, Saudiya Arabistonida esa (har 1 km$^2$ ga 2-13 kishidan to'g'ri keladi) aholi g'oyatda siyrak joylashgan. Etnik va diniy tarkibi nihoyatda murakkkab bo'lib, mingdan ortiq til oilasi va guruhlariga kiruvchi (hind-Yevropa, semit, turk va boshq.) xalqlar yashaydi. Davlatlarning ko'pchiligi - ko'pmillatlidir. Makromintaqa dunyodagi asosiy yirik dinlarning vatani bo'lib, islom (Iroq, Eron, Afg'oniston, Pokiston, Bangladesh, Indoneziya va boshq), induizm (Hindiston va boshq.), iuadizm (Isroil), nasroniylik (Filippin, Livan, Indoneziya va boshq), konfutsiylik (Xitoy) ning tarqalgan.




### Lotin Amerika mintaqasi. Maydoni – 21 mln. km$^2$

Lotin Amerikasi g'arbiy yarimsharda AQSh va Antarktika oralig'ida joylashgan. Lotin Amerikasi tarkibiga Meksika, Markaziy va Janubiy Amerika, Karib havzasidagi Vest-Indiya orollari kiradi.

Lotin Amerikasi aholisining ko'pchiligi ispan va portugal (Braziliya) tilida so'zlashadi va lotin yozuviga asoslangan roman guruhiga mansub. Lotin Amerikasi deyilishining sababi ham shudir. Barcha Lotin Amerikasi mamlakatlari o'tmishda Yevropa mamlakatlari (asosan Ispaniya va Portugaliya) mustamlakasi bo'lgan.

Bu makromintaqa mamlakatlari mustaqillikka erishgunga qadar Yevropa davlatlariga iqtisodiy va moliyaviy jihatdan bog'liq bo'lsa, keyinchalik AQShga qaram bo'lib qoldi. Shuning uchun mintaqa mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi jihatidan farqlar mavjud.

Moskva davlat universitetining iqtisodiy geograflari Lotin Amerikasi mamlakatlarini tipologik belgilariga ko'ra quyidagi tartibda guruhlashtiradilar;

1.Katta tabiiy va iqtisodiy salohiyatga ega yetakchi mamlakatlar – Braziliya va Meksika.

2.Bozor munosabatlari ko'chirma qilingan mamlakatlar – Argentina va Urugvay.

3.Bozor munosabatlari rivojlangan yirik anklav mamlakatlar –Venesuela va Chili.

4.Bozor munosabatlari rivojlangan tashqi savdo yo'nalishiga moslashgan mamlakatlar – Boliviya, Kolumbiya, Paragvay, Peru, Ekvador.

5.Plantatsiya xo'jaligi rivojlangan kichik mamlakatlar – Nikaragua, Gvatemala, Kosta-Rika, Gonduras, Salьvador, Dominika Respublikasi, Gaiti va boshq.

6.Bozor munosabatlari «kontsession rivojlangan» mamlakatlar–Trinadad va Tobago, Yamayka, Surinam.

7.Kichik (mayda) mamlakatlar – «kvartira beruvchilar» (savdo yo'llari kesishgan orollar yoki qirg'oqbo'yi mamlakatlari, «sohil jannati» «mehmonxona-mamlakatlar», «qulay bayroq» mamlakatlari) Panama, Bermud orollari (Britaniya), Bagam orollari, Kayman orollari (Britaniya) va boshq.

Lotin Amerikasi hududi va aholisining soni jihatdan Osiyo va Afrika makromintaqalaridan orqada tursada, iqtisodiy rivojlanish darajasi jihatdan rivojlanayotgan mamlakatlar bilan iqtisodiy rivojlangan davlatlar oralig'ida turadi va iqtisodiyotining asosini ishlov beruvchi sanoat tashkil qiladi.

Iqtisodiy-geografik xususiyatini barcha Lotin Amerikasi mamlakatlarining (Boliviya va Paragvaydan tashqari) okean va dengizga (Atlantika va Tinch okeani) bevosita chiqish imkoniyatiga egaligi, bir guruh mamlakatlarning orollarda joylashganligi hududiy jihatdan AQSHga yaqinligi va xalqaro Panama kanalining atrofidaligi bilan ajralib turadi hamda mamlakatlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida katta rolь o'ynaydi.

Aholi etnik tarkibi murakkab bo'lib, qariyb 1/2 qismi o'tmishdagi aralash nikohlardan bo'lganlar (metis va mulatlar), shuningdek, Gaiti, Yamayka va Kichik Antilь orollari aholisining asosiy qismini negrlar, And mamlakatlarida – hindular, Braziliyada mulat va negrlardan tashqari «oqlar» ham ko'pchilikni tashkil qiladi.

Lotin Amerikasida aholining zichligi yuqori bo'lib, 1 $km^2$ ga o'rtacha 80 kishi to'g'ri keladi. Ayrim mamlakatlar – Grenada (308), Sent-Lyusiya (317), Martinika (368),

Barbados(650) va boshqa orol davlatlarda aholi zichligi yuqori bo'lsa, Boliviya (9), Argentina (14) kabi mamlakatlarda siyrak joylashgan. Aholining asosiy qismi (72%) shaharlarda yashaydi.

Dunyo makromintaqalari o'rtasida suv resurslariga boyligi jihatidan 1-o'rinda turadi. Amazonka, Orinoko va Parana daryolari dunyodagi yirik, sersuvligi va gidroenergo resurslar salohiyati kattaligibilanajralib turadi. Lotin Amerikasining eng katta boyligi uning o'rmonlaridir. Mintaqaning 50% hududi o'rmonlardan iborat.

Lotin Amerikasida 53 ta suveren mustaqil davlatlar (1-ilova) va qaram hududlar mavjud. Mustaqil davlatlar – respublika yoki Buyuk Britaniya yetakchiligidagi Hamkorlikka (Antigua-Barbuda, Bagam orollari, Barbados, Beliz, Gayana, Grenada, Dominika, Sent-Vinsent va Grenadini, Sent-Kits, Sent - Lyusiya, Trinidad va Yamayka) kiradi. Mamlakatlarning ko'pchiligiunitar davlatlar bo'lsada, Braziliya, Venesuela va Meksika federativ respublikalardir.

Barcha Lotin Amerikasi mamlakatlari – rivojlanayotgan davlatlar bo'lsada, ularning bir guruhi (Argentina, Braziliyava boshq.) yangi industrial mamlakatlar tarkibiga kiradi. Makromintaqadagi yangi industrial mamlakatlar Lotin Amerikasi sanoat ishlab chiqarishning va YaIMning 2/3 qismini beradi. Shuningdek, Chili, Venesuela, Kolumbiya va Peru ham yangi industrial mamlakatlar guruhiga kiradi. Bu guruhda Gaiti iqtisodiy jihatdan bo'shroq rivojlangan.

Bugungi kunda Lotin Amerikasi makromintaqasida bir nechta iqtisodiy integratsion (savdo) guruh va bloklar tuzilgan. Bular – Lotin Amerika integratsion assotsiatsiyasi (LIA), And pakti, Janubiy konus umumiy bozori (MERSOSUR) – eng yirik iqtisodiy tashkilotlar bo'lib, mintaqadagi 45% aholi, 50% YaIM va 33% tashqi savdo aylanmasi to'g'ri keladi.

Shuningdek, Markaziy Amerika umumiy bozori, Karib havzasi umumiy bozori, Markaziy Amerika davlatlari tashkiloti (kredit tashkilotlari, masalan Markaziy Amerika iqtisodiy integratsiya banki) va boshqalar mavjud.

Ayni vaqtda, tabiiy resurslardan birgalikda foydalanish, hamkorlikda obьektlar tashkillashga yo'naltirilgan – Lotin Amerikasi iqtisodiy tizimi (LAIT), Amazonka pakti, La-Plata guruhi, investitsion tashkilotlar – Amerikaaro jamg'arma va qarz banki, Lotin Amerikasi eksport banki (LAEB) va boshq. tuzilgan.

Amerika Davlatlari Tashkiloti (ADT) doirasida 1960 yildan boshlab Amerikaaro rivojlanish banki (ARB) mintaqada birgalikda amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtiradi. Mintaqadagi bir qator eksportyor mamlakatlar (monokulьtura ekinlari) tashqi bozorda o'z manfaatlarini himoya qilish va faoliyatlarini muvofiqlashtirish maqsadida ixtisoslashgan davlatlararo uyushma va kengashlar tuzgan. Bu tovar assosatsiyalari – Kakao ishlab chiqaruvchilar alyansi,Mis eksport qiluvchi mamlakatlar hukumatlararo kengashi, neftь eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK), banan eksport qiluvchi mamlakatlar kengashidan iborat.

Lotin Amerikasi mamlakatlari iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar integratsion jarayonlarning rivojlanishida ham sifat o'zgarishlarini yuzaga keltirmoqda.

Lotin Amerikasi davlatlari iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar yetakchi rolь o'ynaydigan iqtisodiy guruhlar faoliyatida qatnashishga intilmoqda. Bu Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi (NAFTA), Osiyo-Tinch okean iqtisodiy hamkorligi (OTOIH – inglizcha ARES) va boshqa. Ayni vaqtda, butun G'arbiy yarim sharda yagona erkin savdo mintaqasi barpo qilish yuzasidan muzokaralar ham olib borilmoqda.

**Afrika mintaqasi. Maydoni (Madagaskar va boshqa orollar bilan) – 30,3 mln. km$^2$**

Afrika makromintaqasi – bugungi jahon xo'jaligida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, industrlashtirish darajasi, qishloq xo'jaligi (ziroatchilik va chorvachilik), transport tizimi bilan ta'minlanganligi, sog'liqni saqlash, ta'lim va fanning rivojlanishi jihatidan oxirgi o'rinda turadi.




Xalqaro mehnat taqsimotida qazib beruvchi sanoat, tropik va subtropik dehqonchilik mahsulotlari yetkazib berishga ixtisoslashgan. Ayni paytda xo'jaligida oltin va olmos, uran va boksit, fosforit, kokos yong'og'i va palьma yog'i, kofe va kakao ishlab chiqarish bo'yicha muhim o'rin tutadi.

Makromintaqaningiqtisodiy-geografik xususiyatlari:

- boshqa makromintaqalarga nisbatan Afrikaning o'ziga xos iqtisodiy-geografik holati avvalo ekvator uning markazidan o'tib ikkiga bo'ladi, shimolga va janubga tomon ekvatorial, tropik va subtropik kengliklar joylashgan.
- issiqlik Afrika hududiga yil davomida bir xil tushadi, yil shimol va janubda bir-biriga qarama-qarshi, Shimoliy yarim sharda yoz bo'lsa, janubiy yarim sharda qish yoki aksincha bo'ladi.

- yil davomida qirg’oqlarini yuvib turgan dengiz va okean suvlari muzlamaydi, kemachilik uchun g’oyat qulay.
- gibraltar bo’g’ozi (14 km, Yevropa va Afrikani bir-biridan ajratib turadi), Suvaysh kanali Qizil dengiz bilan O’rta dengizni bir-biri bilan tutashtiradi), Adan bo’g’ozi xalqaro ahamiyatga ega. SHu bilan birga ko’pgina mamlakatlar bevosita dengizga chiqaolmaydi (Mali, Niger, Chad va boshq.).
- Afrika makromintaqasi dunyodagi eng yuqori tabiiy o’sish sur’atlari (yiliga 3%) va yuqori tug’ilish koeffitsientiga ega bo’lsada, o’lim sur’atlari ham kattaligi bilan ajralib turadi. Aholi yosh tarkibida 15 yoshgacha bo’lganlar salmog’i yuqori (45%). Makromintaqada aholi o’rtacha 1 $km^2$ ga 25 kishi to’g’ri keladi va g’oyat notekis joylashgan. Dengiz qirg’oq bo’yi, JAR, Zambiya, Zair va Zimbabve qirg’oq bo’yi rayonlarida 1 $km^2$ga 50 kishidan 1000 kishiga qadar aholi to’g’ri kelsa, Sahroi Kabir, Kalaxari, Namib cho’llarida aholining zichligi 1 $km^2$ga zo’rg’a 1 kishiga yetadi. Urbanizatsiya darajasi past, 30% atrofida. Afrikada 200 dan ortiq yirik shaharlar bo’lib, bu shaharlar atrofida aglomeratsiyalar shakllangan (Qohira, Iskandariya, Jazoir, Kasablanka, Addis-Abeba, Logos, Kinshaso, Yoxannesburg, Keyptaun, Durban va boshq.). Yirik shaharlar asosan iqtisodiy jihatdan bir muncha rivojlangan – JAR (59%), Misr (43%), Tunis (63%), Jazoir (63%) mamlakatlarda joylashgan bo’lib, shahar aholisi salmog’i nisbatan yuqori.

Lingvistik xususiyatiga ko’ra, afro-osiyo, kongo-kordofan, nil-sahroikabir va koysan til sinflari mavjud. Yevropoid irqiga mansub xalqlar Afrika aholisining 3%ni tashkil qiladi. Afrikada aholining 42% musulmon, 22% xristian va 36% mahalliy an’anaviy dinlarga e’tiqod qiladi.

Afrika mamlakatlarida ichki va tashqi migratsiya xarakterli. Afrikadan tashqi migratsiya Yevropa mamlakatlariga, Janubi-G’arbiy Osiyo mamlakatlariga (asosan Fors ko’rfazi), ichki migratsiya esa kambag’al mamlakatlardan nisbatan boy mamlakatlar Nigeriya, Kot-d-Ivuar, Marokko, Misr, Tanzaniya, Keniya, Zair va Zimbabvega yo’nalgandir.

Afrika siyosiy kartasida 55 ta mamlakat bo’lib, ularning ko’pchiligi rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiradi .

Mintaqada yagona iqtisodiy rivojlangan mamlakatJanubiy Afrika Respublikasidir.Mamlakatlarning ko’pchiligiboshqaruv shakliga ko’rarespublikadir. (Marokash, Lesato va Svazilend konstitutsion monarxiya), ma’muriy hududiy tuzilishga ko’ra ko’pchiligi (JAR va Nigeriya-Federativ) unitar davlatdir.

Afrika geosiyosiy va iqtisodiy holatiga ko’ra: Shimoliy, G’arbiy, Markaziy, Sharqiy va Janubiy Afrika mintaqalariga bo’linadi.

**Avstraliya va Okeaniya. Maydoni – 8,5 mln. km$^2$**

Avstraliya, Yangi Zelandiya va Tinch okeanining markaziy va junubi-g'arbiy qismidagi orollar (10 mingdan ortiq) alohida makromintaqa – Avstraliya va Okeaniyani tashkil etadi. Makromintaqa mamlakatlari va hududlarining siyosiy va iqtisodiy rivojlanish darajasi nihoyatda xilma-xil. Avstraliya va Yangi Zelandiya iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar bo'lsa, orol davlatlar (o'tmishda barchasi mustamlaka bo'lgan) va ayrim hududlar (hozir ham mustamlaka) iqtisodiy jihatdan bo'sh rivojlangan.

- Avestraliya Ittifoqi – iqtisodiy jihatdan rivojlangan industrial-agrar davlat bo'lib, Avstraliya materigi, Tasmaniya oroli va ko'plab mayda orollardan (Tinch va Hind okeanidagi) iborat.
- Yangi Zelandiya–BuyukBritaniya hamdo'stligi tarkibidagi davlat. Ikkita yirik (Shimoliy va janubiy) hamda mayda orollardan iborat. Buyuk Britaniyaning sobiq mustamlakasi (1840 yildan), 1907 yilda dominion maqomini olgan va 1931 yildan mustaqil ichki va tashqi siyosat olib boradi. Bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan industrial-agrar davlat.Okeaniya – planetadagi eng yirik orollar to'plangan hudud




bo'lib, Melaneziya (yirik orollar guruhi), Polineziya (unchalik katta bo'lmagan orollar guruhi) va Mikroneziyadan (mayda orol va orollar guruhi) iborat. Okeaniyaning bir qator orollarida iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning (AQSh, Fransiya va boshq.) harbiy bazalari, yadro qurollarini sinash poligonlari mavjud.

**Avstraliya. Maydoni – 7687 ming km$^2$**Avstraliya federativ davlat, Buyuk Britaniya boshchiligidagi hamdo'stlik tarkibiga kiradi. Avstraliya Ittifoqi tarkibiga oltita shtat – Yangi janubiy Uelьs, Viktoriya, Janubiy Avstraliya, Kvinslend, G'arbiy Avstraliya va

Tasmaniya shuningdek, ikkita hudud – Shimoliy va Poytaxt hududlari kiradi.

Iqtisodiy-geografik holati:

- boshqa kontinentlardan ajralgan va uzoqda joylashgan bo'lib, Tinch va Hind okeani suvlari ajratib turadi. (Avstraliya Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan 3,5 ming km, AQSh dan 11-16 ming km va Buyuk Britaniyadan 21 ming km uzoqlikda joylashgan).
- Avstraliyaning Shimoliy va Sharqiy qirg'oqlarini Tinch okeani, g'arbiy va janubiy qirg'oklarini Hind okeani suvlari yuvib turadi. Malakka bo'g'ozi orqali Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalar olib boradi.
- Materik qirg'oqlarining katta qismi kemachilik uchun noqulay, shimoli-Sharqda esa Katta To'siq rifi to'siqlik qiladi, faqat materikning janubiy qirg'oq bo'ylari kuchli yemirilgan, tabiiy buxta va gavanlardan iborat bo'lib, asosiy port shaharlar joylashgan.

Avstraliya – materik mamlakat bo'lib, g'arbdan Sharqqa 4400 km, shimoldan janubga 3100 km.ga cho'zilgan. Hududning kattaligi tabiiy sharoiti va resurslarning xilma-xil bo'lishiga olib kelgan. Relьefi tekislikdan iborat, noqulay va qishloq xo'jaligida yaroqsiz yerlar umumiy yer fondining 1/3 qismini tashkil qiladi (Markaziy Avstraliya cho'li). Tog'lar mamlakat hududining 5% egallaydi. Sharqiy qismidagi Suvayrig'ich tizmasi (eng baland nuqtasi Kostsyushko tog'i, 2230 m) xo'jalik jihatdan o'zlashtirishga to'siqlik qiladi. Iqlimi qurg'oqchil, daryolari kamsuv va suvsiz. Eng katta daryo – Murrey (Darling irmog'i bilan).

Maydonining 50% yaylov va o'tloqlardan iborat bo'lib, mamlakat milliy boyligi hisoblanadi. Haydaladigan yerlar va o'rmonlar hududning 5% tashkil bo'ldi. Mamlakatning Sharqiy va janubi-Sharqiy qismigina dexdonchilik va chorvachilik uchun qulay. Istiqbolda yer resurslarini o'zlashtirish (er osti suvlari yordamida) imkoniyatlari katta.

Avstraliya geologik tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari mineral xom ashyo resurslariga boy va xilma-xil bo'lishga olib kelgan. Foydali qazilma resurslari bilan o'z ehtiyojlarini qondirishdan tashqari xalqaro bozorga ham chiqaradi. Birinchi navbatda bu qora va rangli metall rudalari, uran, ikkinchi o'rinda ko'mir, ligerlovchi va kamyob metallar, oltin zahiralariga ta'lluqlidir.

**Okeaniya. Maydoni – 60 mln. km$^2$ (quruqlik qismining maydoni – 1,3 mln. km$^2$)**

Okeaniya Tinch okeanining markaziy va janubi-g'arbidan iborat katta hududini egallab, 29$^0$ sh.k. va 130$^0$ sh.u. va 109$^0$ g'.u. oralig'ida joylashgan. Uning quruqlik qismi 1,3 mln. km$^2$ dan iborat.

Yangi Gvineya (829 ming km$^2$) va Yangi Zelandiya (265 ming km$^2$) Okeaniyaning taxminan 90% egallasa, qolgan 10 mingdan ortiq orollar 200 ming km$^2$ yoki 10% hududni egallaydi, xolos.

Okeaniya orollari janubiy yarim sharning tropik va subtropik mintaqasida joylashgan, yumshoq issiq iqlim (er sharidagi eng shinam, yoqimli va qulay) harorati, yetarli yog'in miqdori bu kengliklarda yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi ekinlaridan mo'l hosil olishdan tashqari, bir necha marta hosil olish imkonini beradi (kokos palьmasi, banan, kakao, kofe, choy, shakarqamish, paxta, ildiz mevalilar - taro, batat, yams, monioki va boshq.)

Okeaniya xilma-xil foydali qazilmalarga boy. Toshko'mir (Yangi Zelandiya), tabiiy gaz, temir rudasi, mis va marganets rudalari, platina, kumush (Yangi Gvineya), oltin (Fidji), fosforit rudasi (Nauru) va boshq. qazib chiqariladi.

Mintaqada papuas, melaneziya, mikroneziya va polineziya xalqlari yashaydi. Okeaniya Yevropaliklar tomonidan(F.Magellanning dunyo aylana sayohati davrida 1521 yil Marianna orollarikashf etilgan) XVI asr boshlaridakashf qilingan. Okeaniya hozirgi aholisining asosiy qismini mahalliy aborigenlar (avstroneziya oilasiga kiruvchi papuas xalqlari, immigrantlar va ularning avlodlaridan (ingliz – yangi zellandiyaliklar, amerikaliklar, hindular, frantsuzlar, ingliz-avstraliyaliklar, xitoylar, koreyslar, vьetnam va boshq.) iborat. Okeaniya mamlakatlarining ko'pchiligida tug'ilish va tabiiy o'sishning yuqoriligi va o'limning pastligi xarakterli.Jinsiy tarkibida ayollarga nisbatan erkaklar ko'pchilikni tashkil qiladi. Yosh tarkibida o'smirlar salmog'i yuqori. Iqtisodiy faol aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligi, tog'-kon, xizmat ko'rsatish (ayniqsa, turistlar uchun) sohalarida band. Mamlakatlararo migratsiya oqimi mavjud. Aholining o'rtacha zichligi har bir $km^2$ ga 8-8,5 kishi to'g'ri keladi.

## 7-amaliy mashg'ulot:
## JAHONNING YETAKCHI SIYOSIY, IQTISODIY TASHKILOTLARI

**Maqsad:** Talabalarda Jaxonning yetakchi siyosiy-iqtisodiy tashkilotlari haqida bilim va ko'nikmalarini shakillantirish

***Tayanch tushunchalar (kalit so'zlar):*** Mintaqa, hudud, Xorijiy Osiyo, Lotin Amerika, mintaqaviy iqtisodiyot, mintaqaviy boshqaruv, jahon xo'jaligi, geosiyosiy yondashuv, iqtisodiy-geografik rayon, suveren davlat, siyosiy-hududiy tuzilma, chegara, geografik o'rin, ma'muriy-siyosiy chegaralar, davlat chegaralari, davlat tuzumi, siyosiy-ma'muriy tuzilma

**Amaliy mashg'lot jihozi**: O.Abdullaev." Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti – Toshkent-2009 yil,O'zbekiston atlasi, yozuvsiz karta, amaliy mashg'ulot daftari.

**Amaliy mashg'ulot topshiriqlari:**

Reja

1. Ma'ruza va adabiyotlardan foydalanib amaliy mashg'ulot daftariga Jaxonning yetakchi siyosiy-iqtisodiy tashkilotlarining geografik jihatlari haqida yozma tavsif berilsin.

2. Jaxonning yetakchi siyosiy-iqtisodiy tashkilotlari haqida berilgan jadvalni to'ldiring va tahlil qilish.

| Tashkilot nomi | A'zo mamlakatlar | maydoni | Aholisi |
|---|---|---|---|
| | | | |

3. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi va boltiqbo'yi makromintaqasijadvalini amaliy mashg'ulot daftariga ishlang

| Mamlakat nomi | Davlat tuzumi | maydoni | Aholisi |
|---|---|---|---|
| | | | |

4.Berilgan ma'lumotlardan foydalanib, amaliy mashg'ulot daftariga Jaxonning yetakchi siyosiy-iqtisodiy tashkilotlarini yozing va tahlil qiling

5.Quyidagi xalqaro tashkilotlar belgilarini aniqlang va tahlil qilish

6.Ma'ruza va adabiyotlardan foydalanib amaliy mashg'ulot daftariga Jahonnig yetakchi siyosiy-iqtisodiy tashkilotlarining iqtisodiyotga ta'siri haqida yozma tavsif berish.






ASEAN – *Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi*

**Shtab-kvartirasi:** ***Jakarta shahri (Indoneziya)***

**1967 yil 9 avgustda tashkil topgan**

**A'zo davlatlar:**

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1. | Bruney | 6. | Malayziya |
| 2. | Vetnam | 7. | Myanma |
| 3. | Indoneziya | 8. | Singapur |
| 4. | Kambodja | 9. | Tailand |
| 5. | Laos | 10. | Filippin |

**NAFTA** *("North American Free Trade Area")*

***Shimoliy Amerika erkin savdo zonasi***

**1994 yil yanvarda tashkil topgan**

***A'zo davlatlar:***

| | |
|---|---|
| 1. | AQSH |
| 2. | Kanada |
| 3. | Meksika |

**OPEK** (*Organization of the petrolium exporting countries)*

***Neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti***

Tashkil topgan:

1960 yil

*A’zo davlatlar:*

1.Birlashgan Arab Amirliklari,2.Jazoir,3.Liviya,4.Iroq,5.Indoneziya,6.Nigeriya,7.Venesuela 8.Quvayt,9. Qatar,10.Saudiya Arabistoni,11Eron

**Yevropa ittifoqi**

Tashkil topgan:

1957 yil (1952 yil)

| *A’zo davlatlar:* | | 14 | Lyuksemburg |
|---|---|---|---|
| 1 | Avstriya | 15 | Malta |
| 2 | Belgiya | 16 | Niderlandiya |
| 3 | Bolgariya | 17 | Polsha |
| 4 | Buyuk Britaniya[3] | 18 | Portugaliya |
| 5 | Daniya | 19 | Ruminiya |
| 6 | Vengriya | 20 | Slovakiya |
| 7 | Germaniya | 21 | Sloveniya |
| 8 | Gretsiya | 22 | Finlandiya |
| 9 | Irlandiya | 23 | Fransiya |
| 10 | Ispaniya | 24 | Chexiya |
| 11 | Italiya | 25 | Shvetsiya |
| 12 | Kipr | 26 | Estoniya |
| 13 | Latviya | 27 | Litva |

**Yevropa ittifoqining kengayishi**

| **Yil** | **Mamlakatlar** | **A’zolar soni** |
|---|---|---|
| **1957 yil 25 mart** | Belgiya, Germaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Fransiya | 6 |
| **1973 yil 1 yanvar** | Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya | 9 |
| **1981yil 1 yanvar** | Gretsiya | 10 |
| **1986 yil 1 yanvar** | Ispaniya, Portugaliya | 12 |
| **1995 yil 1 yanvar** | Avstriya, Finlandiya, Shvetsiya | 15 |
| **2004 yil 1 may** | Vengriya, Kipr, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya, Estoniya | 25 |
| **2007 yil 1 yanvar** | Bolgariya, Ruminiya | 27 |

[3] Buyuk Britaniya YI tashkilotini 2017-yil rasman tark etgan

## Yevropa ittifoqining kengayishi

**NATO** *(North Atlantic Treaty Organization)* – Shimoliy Atlantika shartnoma tashkiloti

Tashkil topgan: 1949 yil 4 aprel

Shtab-kvartirasi: Bryussel (Belgiya)

### A’zo davlatlar:

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **1** | AQSH | **10** | .Ispaniya | **19** | Portugaliya |
| **2** | Belgiya | **11** | Italiya | **20** | Ruminiya |
| **3** | Bolgariya | **12** | .Kanada | **21** | Slovakiya |
| **4** | Buyuk Britaniya | **13** | Latviya | **22** | Sloveniya |
| **5** | Vengriya | **14** | Litva | **23** | Turkiya |
| **6** | Germaniya | **15** | Lyuksemburg | **24** | Fransiya |
| **7** | Gretsiya | **16** | Niderlandiya | **25** | Chexiya |
| **8** | Daniya | **17** | Norvegiya | **26** | Estoniya |
| **9** | Islandiya | **18** | Polsha | | |

| **NATO***ning***“Tinchlik yo’lida hamkorlik”***dasturi ishtirokchilari:* | |
|---|---|
| 1.Albaniya<br>2.Armaniston (1994 yil oktabr)<br>3.Avstriya (1995 yil fevral)<br>4.Ozarbayjon (1994 yil may)<br>5.Belorus (1995 yil yanvar)<br>6.Bosniya va Gersegovina (2006 yil dekabr)<br>7.Gruziya (1994 yil mart)<br>8.Irlandiya (1999 yil dekabr)<br>9.Qozog’iston (1994 yil may)<br>10.Qirg’iziston (1994 yil iyun) | 11.Makedoniya (1995 yil noyabr)<br>12.Malta (1995-1996 yil)<br>13.Moldova (1994 yil may)<br>14.Rossiya (1994 yil iyun)<br>15.Serbiya (2006 yil dekabr)<br>16.Tojikiston (2002 yil fevral)<br>17.Turkmaniston (1994 yil may)<br>18.O’zbekiston (1994 yil iyul)<br>19.Ukraina (1994 yil fevral) |

**1-topshiriq yuzasidan ma’lumotlar:**Xalqaro tashkilotlar jamiyatning o’ziga xos sub’ektlari sifatida jahon iqtisodiyoti va siyosatida uning umuminsoniy manfaatlar yo’nalishining rivojlanishida yetakchi rol o’ynaydi. Bu tashkilotlar jahonning yetakchi kuchlaridan biri hisoblanadi.Xalqaro tashkilotlarning qaror topishi uzoq tarixga ega bo``lib, ular davlatlarning rivojlanishi, mamlakatlar va xalqlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning takomillashib bo`rishi zaruriyati asosida shakllangan. Ularning dastlabki shakllanish jarayoni 1851 yilda chaqirilgan Vena Kongressidan bo`shlangan. O’shangacha hali mamlakatlar o’rtasidagi aloqalarni

uyg’unlashtirib turadigan tartib va qoidalar mavjud bo``lmagan. Vena Kongressi aynan shu vazifani, ya’ni mamlakatlar va xalqlar o’rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turuvchi qonun qoidalarning dastlabki asoslarini ishlab chiqqan edi. Bu Kongress xalqaro tashkilot sifatida davlatlar o’rtasidagi munosabatlarni uyg’unlashtirish va jahon siyosatining asosiy yo’nalishlarini belgilab berishda muhim omil bo``ldi. Millatlar Ittifoqi jahon siyosati tarixida muhim rol o’ynadi, Shunki u birinchi marta jahon ahlining yagona maqsadi bo``lgan tinchlik, hamkorlik, xavfsizlik munosabatlariga amal qilishi mumkin ekanligini isbo`tlab berdi va uni hayot tajribasi sinovi-dan o’gkazdi. Millatlar Ittifoqi tashkiloti jahonda barcha kuchlarni birlashtirib, fashizmga qarshi kurash olib bo`rishda va bu bilan ikkinchi jahon urushiga to’sqinlik qilishda ma’lum darajada o’z hissasini qo’shdi. Ammo, u ikkinchi jahon urushini to’xtatib qola olmadi. Millatlar Ittifoqi Ikkinchi jahon urushi tufayli va bo`shqa obyektiv sabablarga ko’ra tarqatib yubo`rildi. Keyinchalik mam-lakatlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni tartibga solib turadi-gan xalqaro tashkilotga bo``lgan ehtiyoj kuchayib bo`rdi. Bunday ehtiyojlarning qondirilishida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning tuzilishi muhim ahamiyatga ega bo``ldi. Bu tashkilot mustaqil davlatlarning ixtiyoriyligi asosida dunyoda tinchlik va xavfsizlikni saqlash, uni mustahkamlash hamda davlatlar o’rtasida tinch hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil topdi. Xalqaro tashkilotlar davlatlar o’rtasidagi munosabatlarda o’z-larining maqsad va manfaatlari, harakat yo’nalishlariga, jahon siyosatida to`tgan o’rni va roliga qarab turlicha ahamiyat kasb etadi. Ular turli xil tarixiy sharoitlarda vujudga kelgan bo``lib, hozir-gi kunda ularning umumiy soni 4 mingdan oshib ketdi. Ular siyosat-ning sub’ektlari sifatida bir-birlaridan farq qiladi va xalqa-ro siyosatda turlicha mavqega ega. Xalqaro tashkilotlarni ularning xalqaro munosabatlarda va jahon siyosatida to`tgan o’rniga, maqsad hamda vazifalariga qarab bir necha guruhga ajratish mumkin. Bularga ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar, mintaqaviy xalqaro tashkilotlar, xalqaro mintaqa-viy siyosiy tashkilotlar kiradi.

**Jahon mamlakatlarini iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan tashkilotlar.**

Hozirgi kunda bu guruhlardagi barcha xalqaro tashkilotlarning diqqat e’tibori xalqlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, maorif, fan va madaniyatni rivoj-lantirish, atom quvvatlaridan tinch maqsadlarda foydalanish, tib-biy xizmatini yaxshilash, kosmik fazodan tinch maqsadlarda foyda-lanish kabi xilma-xil masalalarni hal qilishga qaratilgan. SHunday tashkilotlar ham bo`rki, ular hududining yaqinligi, milliy, iqtisodiy manfaatlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan. Bunday tashkilotlar mintaqaviy tashkilotlar bo``-lib, ular mazkur mintaqadagi xalqlar va davlatlarning hamkorli-gini rivojlantirishga, xalqaro keskinlikni yumshatishga, irqiy kamsitishlarga barham berish, harbiy bloklarga qatnashmaslik, tinch-totuv yashash siyosatini amalga oshirish, fan-texnika taraqqiyo-tiga hissa qo’shish, tibbiyot va savdo-sotiqni

rivojlantirish kabi muammolarni hal etish maqsadida tashkil topgan. Ularga Arab Dav-latlari Ittifoqi (ADI), Amerika Davlatlari Tashkiloti (ADT), Afrika Birdamligi Tashkiloti (ABT), Osiyo va Afrika Birdam-ligi Tashkiloti (OABD) kabi xalqaro tashkilotlar kiradi. Bu tashkilotlar mazkur mintaqadagi mamlakatlarning biron-bir soha-sini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi, balki ular a'zo davlatlarning maqsad va manfaatlarini himoya qiladi. Jahonda mamlakatlar va xalqlarning iqtisodiyotini rivoj-lantirishga qaratilgan tashkilotlar ham mavjud. Ularning maqsadi a'zo davlatlarning iqtisodiy integratsiyasini kuchaytirish, mahsulotlarini sotishni keng yo'lga qo'yish, mamlakatlarning tanglik-larsiz bir maromda rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Bularga Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi («Umumiy bo`zor»), Osiyo va Uzoq Sharq uchun iqtisodiy komissiya, Janubiy va Janubiy-Shar-qiy Osiyoda Birlashgan Iqtisodiy taraqqiyot yuzasidan «Palomo Plani», Markaziy Amerika Umumiy Bo`zori (MAUB) kabi xalqaro tashkilotlar kiradi. Xalqaro tashkilotlar turli maqsadlarda shakllangan bo``lsada, biroq ular o'z mohiyati jihatidan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, harbiy harakterga egadir. Ammo ularning siyosiy mohiyatga ega ekanligi, bu tashkilotlarning hammasi ham xalqaro siyosiy tashki-lot ekanligini bildirmaydi. Shunki ularning ko'plari siyosiy masa-lalar bilan shug'ullanmaydi. Xalqaro siyosiy tashkilotlarning faoliyati asosan siyosiy mu-ammolarni hal etishga yo'naltirilgan bo``lib, ularning maqsadi xalqaro keskinlikni yumshatish, tinchlik, demokratiya va xavfsiz-likni ta'minlashdan ibo`rat. O'z navbatida, bu tashkilotlar sof siyosiy masalalar bilan shug'ullanib qolmasdan, shu bilan birga o'z faoliyatlarida, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy masalalarni hal etishda ham yetakchi rol o'ynaydi. Bu tashkilotlarning xalqaro siyo-siy tashkilot deb atalishining sababi, ularning faoliyati o'z mohiyati va mazmuni jihatidan ham siyosiy harakterga va siyosiy yo'-nalishga ega ekanligi bilan belgilanadi.

## 8-amaliy mashg'ulot:
## O'ZBEKISTONNING MA'MURIY-HUDUDIY TUZILISHINI

**Maqsad:** Talabalarda O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishinihaqida bilim va ko'nikmalarini shakillantirish.

***Tayanch tushunchalar (kalit so'zlar):*** O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi, siyosiy-hududiy tarkibi, geografik o'rin, mezosiyosiy geografik o'rin, mikrosiyosiy geografik o'rin, ma'muriy-siyosiy chegaralari, davlat chegaralari, davlat tuzumi, siyosiy ma'muriy tuzilma

**Amaliy mashg'lot jihozi**: O.Abdullaev." Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti –Toshkent-2009 yil,O'zbekiston atlasi, yozuvsiz karta, amaliy mashg'ulot daftari.

**Amaliy mashg'ulot topshiriqlari:**

1.Ma'ruza va adabiyotlardan foydalanib,amaliy mashg'ulot daftariga O'zbekiston Respublikasini davlat boshqaruv shakillari haqida yozma tavsif berish

2.Berilgan kartadan foydalanib, O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishini o'rganish

3.Yozuvsiz kartaga O'zbekistonni ma'muriy kartasini ishlash

4.O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi jadvalini to'ldirish va tahlil qilish

5.Ma'ruza va adabiyotlardan foydalanib,amaliy mashg'ulot daftariga O'zbekiston Respublikasining viloyatlariga umum geografik tavsif berish

6.O'zbekiston Respublikasini chegara hududlarini tabiiy va iqtisodiy jixatdan tahlil qilish.

## O'zbekistonning siyosiy-ma'muriy kartasi




| | Maydoni, ming kv.km | Aholi soni, ming kishi | Aholisi, shundan: | | Aholi zichligi, km kv kishi | Tumanlar soni, (shahardagi tumanlardan tashqari) | Shaharlar soni | Shaharchalar soni |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Shahar aholisi, ming kishi | Qishloq aholisi, ming kishi | | | | |
| O'zbekiston Respublikasi | | | | | | | | |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | | | | | | | | |
| **Viloyatlar** | | | | | | | | |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Andijon | | | | | | | | |
| Buxoro | | | | | | | | |
| Jizzax | | | | | | | | |
| Navoiy | | | | | | | | |
| Namangan | | | | | | | | |
| Samarqand | | | | | | | | |
| Sirdaryo | | | | | | | | |
| Surxondaryo | | | | | | | | |
| Toshkent | | | | | | | | |
| Farg'ona | | | | | | | | |
| Xorazm | | | | | | | | |
| Qashqadaryo | | | | | | | | |
| Toshkent shahri | | | | | | | | |

### Adabiyotlar ro'yxati:


1.Martin Jones, Rhys Jones, Michael Woods. An introduction to political geography: space, place and politics. Routledge. London and New-York, 2004.

2.Голубчик М.М. Политическая география мира. -Смоленск, 1998


### Qo'shimcha adabiyotlar


3.O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

4.Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.:O'zbekiston, 2017.

5.Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- T O'zbekiston 2017.

6.Мангейм Д., Рич Р. Политология: методы и исследования. -М., 1999


### Internet saytlar:


7.www.Ziyo.net.


## 9-amaliy mashg'ulot:
## O'ZBEKISTONNING DUNYO SIYOSIY XARITASIDA TUTGAN O'RNINIBAHOLASH

**Maqsad:** Talabalarda O'zbekistonning dunyo siyosiy xaritasida tutgan o'rninihaqida bilim va ko'nikmalarini shakillantirish.

***Tayanch tushunchalar (kalit so'zlar):*** siyosiy karta**,** ma'muriy-hududiy tuzilishi, siyosiy-hududiy tarkibi**,** geografik o'rin, mezosiyosiy geografik o'rin, mikrosiyosiy geografik o'rin, ma'muriy-siyosiy chegaralari, davlat chegaralari, davlat tuzumi, siyosiy ma'muriy tuzilma

**Amaliy mashg’lot jihozi**: O.Abdullaev.” Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti – Toshkent-2009 yil,O’zbekiston atlasi, yozuvsiz karta, amaliy mashg’ulot daftari,Ma’ruza matni

**Amaliy mashg’ulot topshiriqlari:**

1. O’zbekiston hududining Rossiya imperiyasi mustamlakasi davrigacha bo’lgan ijtimoiy-siyosiy holati tavsif berish.

2.O’zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va jahon hamjamiyatiga kirishini o’rganib chiqish

3.Ma’ruza va adabiyotlardan foydalanib,amaliy mashg’ulot daftariga O’zbekiston Respublikasining dunyo siyosiy xaritasida tutgan o’rniniga iqtisodiy geografik baxo berish.

4.Bajarilgan ishdan foydalanib,O’zbekistonning joylashgan o’rnidagi v chegaralaridagi salbiy tomonlrini talil qilish

5. O’zbekiston tabiiy sharoiti va resurslarini xalq xo’jaligidagi ahamiyatini o’rganib chiqish.

6. O’zbekiston Respublikasining M.D.X va  Markaziy Osiyo mamlakatlarida tutan urni va siyosiy geografik saloxiyatin haqida yoma tavsif berish.

7.Yozuvsiz kartaga O’zbekistonning chegara qishloq tumanlari kartasini ishlash.




2.2.4-расм. Ўзбекистон Республикаси чегара қишлоқ туманлари ташқи савдо айланмаси(2009 й.)

**3-topshiriq yuzasidan ma’lumotlar.** O’zbekiston tarixan Buyuk  ipak yo’li kabi qadimiy savdo yo’llari tutashgan, qizg’in tashqi aloqalar va turli madaniyatlarning bir-birini o’zaro boyitish jarayoni kechgan hudud - Markaziy Osiyoning markazida joylashgan. Ana shu qulay jug’rofiy o’rin - uning bugungi kunda ham uzoq-yaqin mamlakatlarni o’zaro bog’lab turuvchi ko’prik bo’lib kelayotgani xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yurtimizga nisbatan aytilgan "Sharq darvozasi" degan ta’rif bu haqiqatning

yorqin tasdig'idir. Respublikaning 448,9 ming $km^2$ ga teng bo'lgan maydoni g'arbdan sharqqa 1425, shimoldan janubga esa 930 kilometrga cho'zilgan. Maydoni jihatidan O'zbekiston Avstraliya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Shveytsariya mamlakatlari maydonini qo'shib hisoblaganda ham ulardan kattalik qiladi.

Mamlakatning jahondaga nufuzi uning iqtisodiy va intellektual salohiyati, dunyo sivilizatsiyasi, fan va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi, ayni vaqtda, umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlarga nechog'liq amal qilishi, xalqning turmush darajasi bilan belgilanadi.

Dunyo xamjamiyatidan o'ziga xos o'rin egallab borayotgan O'zbekiston o'z ichki va tashqi siyosatida ana shu mezonlarga tayanadi.

Mamlakatimizning ichki siyosati "Inson va uning manfaatlari har narsadan ulug'" degan tamoyil asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoitini yaratib berish, uning haq-huquq va erkinliklarini kafolatlash, ozchilikning ko'pchilik irodasiga bo'ysunishi, shu bilan birga, ozchilik fikrining ham ko'pchilik tomonidan hurmat etilishi kabi demokratik qoidalarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston o'z tashqi siyosatida barcha davlatlar bilan teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilish, ularning ichki ishlariga aralashmaslik, umuminsoniy qadriyatlarga sodi.lik, tinchlik va xavfsizlikni asrab-avaylash, xalqaro huquq me'yorlarining ustuvorligi kabi tamoyillarga amal qiladi.

Mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash, uni yadro qurolidan holi makonga aylantirish, mintaqaviy mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish, xalqaro terrorchilik va aqidaparastlikka  qarshi kurash mamlakatimizning jahondagi nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Geosiyosat nuqtai nazaridan O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazini egallagan hamda muhim strategik mavqega ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Siyosiy, iqtisodiy hamda ma'naviy salohiyati nuqtai nazardan o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan bu mamlakat demografik holati bo'yicha boshqa respublikalarga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega. Boshqacha aytganda Markaziy Osiyo mintaqasining 50% aholisi faqat O'zbekistonda istiqomat qiladi. Qo'shni respublikalarning O'zbekistonga chegaradosh bo'lgan barcha ma'muriy hududlarida o'zbeklar mahalliy elatlar bilan birgalikda istiqomat qiladi. O'zbek xalqiga xos bo'lgan bag'rikenglik, urf-odatlarni e'zozlash, an'analarga amal qilish, baqamti yashayotgan elatlar Markaziysida tabiiy ravishda uning yetakchiligini ta'minlab beradi. Masalan, turli elatlar birgalikda istiqomat qiladigan hududlarda to'y, ma'raka, ta'ziya, hashar yoki boshqa ijtimoiy tadbirlar asosan, o'zbeklar yetakchiligida o'tishini kuzatish mumkin. Bu O'zbekistonning mintaqada nafaqat geografik, balki etno-madaniy nuqtai nazardan ham muhim bog'lovchilik vazifasini namoyon etmoqda.

Xulosa qilib aytganda mintaqaning geosiyosiy mavqei quyidagi omillar bilan belgilanmoqda:

Markaziy Osiyoning geosiyosiy mavqei avvalo uning iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqmoqda. Bu borada eng manfaatli hamkorlar bilan ish olib borish muhim ahamiyatga ega. Mintaqada yetakchi davlatlarning manfaatlari tezlik bilan shakllanib borayotganligini kuzatish mumkin. O'z iqtisodiy manfaatlarini amalga oshira olmagan tashqi kuchlar mintaqada muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillar, xususan diniy, millatlararo munosabatlar, hududiy muammolar, suv taqsimotiga oid masalalar kabi omillarga urg'u bergan holda mintaqada beqarorlik yuzaga keltirishlari mumkin.

O'zbekiston hududi janubi-sharqdan shimoli-g'arbga qarab cho'zilib qarabga pasayib boradi. Respublikanmiz yer usti tuzilishi jihatidan Tojikiston va Qirg'izistondan keskin farq qiladi. O'zbekiston hududining ko'p qismi (71%) dehqonchilik uchun qulay vodiylar, tekisliklar va tog' oldi tekisliklaridan iborat. Tekislik yerlarning ko'p bo'lishi va bu joylardan Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Chirchiq, Qashqadaryo va boshqa daryolarning oqib o'tishi, iqlimining qulayligi, sug'oria dehqonchilikning va ayniqsa, paxtachilikning juda kadimdan rivojlanishiga imkon bergan.

Shu nuqtai nazardan, millatlararo munosabatlarda barqarorlikni saqlash mintaqaviy xavfsizlikning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek,, mintaqada suv taqsimoti masalalarida hukumatlararo komissiya ishini to'g'ri yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, respublikalar Markaziysida chegaralash ishlarini oxiriga yetkazish va bu masalada hech qanday muammo qoldirmaslik butun mintaqaning geosiyosiy mavqeining ko'tarilishiga olib keladi. Shuningdek, mintaqadagi kommunikatsion tizim yaratilishi uning iqtisodiy va siyosiy ahamiyatini oshishiga olib keluvchi omil hisoblanadi. Albatta bunga respublikalar manfaatlarining solishtirilishi, shuningdek, uzluksiz va jadal muzokaralar orqaligina erishilishi mumkin.

**O'zbekiston Respublikasining xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, assotsiatsiyalar, komissiyalar va harakatlarga a'zoligi**

| № | Tashkilot nomi | O'zbekiston a'zo bo'lgan yil |
|---|---|---|
| 1 | Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) | 1992 yil 2 mart, N'yu-York |
| 2 | BMTning sanoatni rivojlantirish tashkiloti - YUNIDO | 1994 yil aprel', Vena |
| 3 | BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti - YUNESKO | 1993 yil 26 oktyabr', Parij |
| 4. | BMTning bolalar jamg'armasi - YUNISEF | 1994 yil 20 aprel', N'yu-York |
| 5. | BMTning giyohvand moddalarni nazoratiga oid xalqaro dasturi - YUNDKP | 1995 yil fevral', Vena |

| | | |
|---|---|---|
| 6. | Jahon sayyohlik tashkiloti | 1993 yil,Madrid |
| 7. | Jahon pochta aloqa ittifoqi | 1992 yil aprel’, Bern |
| 8. | Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti | 1992 yil 22 may, Jeneva |
| 9. | Xalqaro mehnat tashkiloti | 1992 yil 13 iyul’, Jeneva |
| 10. | Jahon meteorologiya tashkiloti | 1993 yil 23 yanvar’, Jeneva |
| 11. | Xalqaro atom energetikasi agentligi - MAGATE | 1994 yil 15 yanvar’, Vena |
| 12. | BMTning Osiyo va Tinch okean iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi - ESKATO | 1992 yil 31 iyul’, Bangkok |
| 13. | BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi - YEIK | 1993 yil 30 iyul’, Jeneva |
| 14. | Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki - XTTB | 1992 yil 21 sentyabr’, Vashington |
| 15. | Xalqaro valyuta jamg’armasi | 1992 yil 21 sentyabr’, Vashington |
| 16. | Evropa tiklanish va taraqqiyot banki - YETTB | 1992 yil 27 aprel’, London |
| 17. | Osiyo taraqqiyot banki - OTB | 1995 yil 31 avgust |
| 18. | Xalqaro bojxona tashkiloti | 1992 yil 22 iyul’, Bryussel’ |
| 19. | Xalqaro moliya korporatsiyasi | 1992 yil 21 sentyabr’, Vashington |
| 20. | Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi | 1992 yil 21 sentyabr’, Vashington |
| 21. | Evropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti | 1992 yil 30 yanvar’, Vena |
| 22. | Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti - EKO | 1992 yil 28 noyabr’, Tehron |
| 23. | Shimoliy Atlantika hamkorlik kengashi (1997 yil maydan Yevroatlantika sheriklik kengashi deb ataladi) | 1992 yil 28 noyabr’, Bryussel’ |
| 24. | Qo’shilmaslik harakati | 1992 yil 1 sentyabr’, Jakarta |
| 25. | Islom konferentsiyasi tashkiloti | 1996 yil 2 oktyabr’, Jidda |
| 26. | Xalqaro Olimpiya qo’mitasi | 1992 yil 22 mart, Lozanna |
| 27. | Jinoyat politsiyasi xalqaro tashkiloti - Interpol | 1994 yil 28 sentyabr’, Lion |
| 28. | Xalqaro mehnat tashkiloti | 1992 yil 13 iyul’, Jeneva |
| 29. | Fuqaro aviatsiyasi xalqaro tashkiloti | 1992 yil 12 noyabr’, Monreal’ |
| 30. | Xalqaro elektr aloqa ittifoqi | 1992 yil 10 iyul’, Jeneva |
| 31. | Evropa energetika xartiyasi | 1995 yil 5 aprel’, Bryussel’ |
| 32. | Islom taraqqiyot banki | 2003 yil sentyabr’ |
| 33. | Xalqaro epizotiya idorasi | 1992 yil 9 oktyabr’, Parij |

| | | |
|---|---|---|
| 34. | Xalqaro ko’rgazmalar idorasi | 1997 yil 3 iyun’, Parij |

**Manba: Atlas. Ekonomicheskaya i sotsial’naya geografiya Uzbekistana, 8 klass. – T., 2006. – str. 3.**

O’zbekistonnig Markaziy dengiz atrofidagi mamlakatlar bilan deyarli bir geografik kengiikda joylashgan. Markaziy dengiz atrofidagi mamlakatlar subtropikka xos landshaft bilan tavsiflanadi. Lekin O’zbekiston iliq okea va dengizlardan uzoqda materik ichkarisida joylashganligi tufayli tabiiy sharoiti jixatidan Markaziy dengiz atrofidagi dalatlardan butunlay farq qiladi. Chunki O’zbekiston hududining shimoliy qismi ochiq bo’lib, qishda shimoldan va shimoli-sharqdan esuvchi sovuq, quruq havo oqimi be’malol ichki qismlarigacha etib qeladi. Aksincha, janubida baland tog’larning mavjudligi esa Hind okeanidan esadigan nam va iliq haao massalarini O’zbekiston hududiga o’tishiga to’siqlik qiladi. Oqibat natijada O’zbekistonda subtropikka xos bo’lmagan landshaft vujudga kelib, yoz bulutsiz, seroftob bo’lib, jazirama issiq, huruq, qish esa shu geografik kengiik uchun ancha sovuq bo’ladi. Binobarin, O’zbekiston subtropik iqlim mintaqasida joylashsada, asosan cho’lga xos bo’lgan landshaft bilan tavsiflandi. Faqat atrofi tog’lar bilan o’rgagan Surxon-Sherobod vodiysidagina quruq subtropik landshaft mavjud, xolos.

Mamlakatimiz shimolda Qozog’iston, sharq va janubi-sharqda Qirg’iziston va Tojikiston, g’arbda Turkmaniston, janubda Afg’oniston bilan chegaradosh. Respublika chegarasining umumiy uzunligi 6221 kilometrni tashkil etib, undan 2203 km. Qozog’iston, 1021 km. Turkmaniston, 1161 km. Tojikiston, 1099 km. Qirg’iziston, 137 km. Afg’onistonga to’g’ri keladi.

### Geosiyosiy salohiyati va uning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyati

Ma’lumki, “manfaatlar to’qnashuvi” ancha yillar mobaynida Afg’oniston xududida ruy berib keldi. Endilikda so’z bu to’qnashuv saxnasining Kaspiy atrofi yoki mintaqaning boshqa xududlariga kuchish extimoli xaqida bormokda. Markaziy Osiyoda vujudga kelishi mumkin bo’lgan vaziyatni AQSHning taniqli tadqiqotchilaridan biri - Z.Bzejinskiy “Buyuk shaxmat taxtasi” asarida o’ziga xos tarzda talkin qiladi. Uning yozishicha, 1993-2015 yillar oraligida dunyoda energetika zaxiralariga bo’lgan extiyoj 50 foizga ko’tarilishi kutilmoqda. Shu nuqtai nazardan yangi-yangi energetika zaxiralarini izlab topishga bo’lgan extiyoj yetakchi davlatlarni ushbu zaxiralarga boy xududlar tomon, xususan Markaziy Osiyo tomon chorlashi aniq. Tabiiy zaxiralarga boy va ayni paytda millatlararo munosabatlar, tarixiy xududlar masalalari jixatdan notinch bo’lgan mintaqada millatlararo, xududiy negizda turli nizolarni keltirib chiqarishga urinishlar bo’lishi mumkin.

Ma’lumki, mintaqa ulkan xom ashyo zaxirasiga ega. Qozog’iston, Turkmaniston va O’zbekistonda aniqlangan neft’ zaxiralari yer yuzidagi butun zaxiralarning taxminan 2,7 foizini,

gaz zaxiralari esa 7 foizini tashkil etar ekan. Turkmanistonda gazning ulkan zaxiralari aniqlangan. O'zbekistonda 1 trln. AQSH dollari miqdorida neft' va gaz zaxiralari mavjudligi aniqlangan.

O'zbekiston oltin zaxiralari buyicha dunyoda to'rtinchi o'rinda turgan davlat xisoblanadi, ishlab chiqarish buyicha esa 7 o'rinni egallaydi. SHuningdek, O'zbekistonda boshqa nodir metallarning yirik zaxiralari mavjud.

Nihoyat, O'zbekiston mintaqada eng rivojlangan iqtisodiy salohiyat, kommunikatsiyalar infratuzilmasi va malakali mehnat resurslariga ega. U shuningdek tabiiy resurslarga ham boy o'lkadir. Bu resurslarning aksariyati o'z ko'rsatkichlariga ko'ra betakrordir. Ekspertlarning ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 50 nomdagi mineral resurslar qazib olinadi. Ularning baholangan qiymati 3,3 trillion AQSH dollarini tashkil etadi. Mamlakat oltin ishlab chiqarish bo'yicha jahonda oldingi o'rinlarda (qazib olish bo'yicha yettinchi va zaxirasi bo'yicha to'rtinchi o'rinda) turadi. O'zbekistonda rangli metallarning qirqqa yaqin koni bor. Oltinning balans zaxiralari 5,3 ming tonnani tashkil etadi. O'zbekiston mis va uranishlab chiqarish bo'yicha jahonning peshqadam o'n mamlakati qatoriga kiradi. U kumush, rux, qo'rg'oshin va vol'fram zaxiralari bo'yicha ham jahonda oldingi o'rinlardan birini egallaydi.

Mamlakat ancha katta energetik salohiyatga ega.Mutaxassislarning fikricha, tekshirilgan tabiiy gaz zaxiralari mamlakat ehtiyojlarini 30 yilga, neft' zaxiralari esa - 25 yilga qoplaydi.O'zbekiston hududida umumiy zaxiralari to'rt milliard tonnadan ko'proq bo'lgan 160 dan ortiq neft' konlari mavjud. Kondensatsiyalangan gaz zaxiralari 630 milliard tonnani, tabiiy gaz zaxiralari esa - 5,5 trillion kubometrni tashkil etadi. Aniqlangan ko'mir zaxiralari 2 milliard tonnadan ortiq.

Ana shunday ulkan imkoniyatlarga ega bo'lishiga qaramasdan, Markaziy Osiyo mamlakatlarining geografik jixatdan noko'lay shart-sharoiti, aniqrogi, energetik zaxiralarning iste'mol bozoridan o'zokda joylashgani hamda ushbu bozorga chiqish yo'llarining murakkab geosiyosiy xarakteri tufayli mavjud geostrategik saloxiyatdan foydalanish imkoniyatlari cheklangan. Markaziy Osiyodagi davlatlarning birortasi ham ochiq dengizga chiqish yo'llariga ega emas.

Shu o'rinda aytish lozimki, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yunalishlaridan biri bu - Mapkaziy Osiyo omilidir. Zero, Markaziy Osiyo bugungi kunda jug'rofiy-siyosiy va jug'rofiy-strategik nuqtai nazardan juda muhim markaziy hududda joylashgan. Markaziy Osiyo haqida prof. G.A.Hidoyatov shunday deydi: «Markaziy Osiyo davlatlari Osiyo mintaqasida muhim geosiyosiy o'rin tutadilar. Ularning hududi 4.4 mln. kv.km. bo'lgani holda, butun Osiyoning 10 foizini tashkil etadi. Hudud Xitoy chegaralaridan Eron va Kaspiygacha cho'zilgan bo'lib, Evropa, Uzoq Sharq va Janubiy Osiyoni bog'lovchi tugundir.

Markaziy Osiyo davlatlarining kelajakda dunyo siyosatida muhim tarixiy rol o'ynashi uchun barcha imkoniyatlar mavjud» .

### 6-topshiriq yuzasidan ma'lumotlar O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy mavqei va ahamiyati

Markaziy Osiyoning geosiyosiy ahamiyati va uning xavfsizligi to'g'risida ham dastavval ismlari kayd etilgan xorijlik mutaxassislar va geosiyosatchilar atroflicha fikr bildirishgan. Chunki Markaziy Osiyo kit'adagi eng yirik kuchlar, jumladan Rossiya, Xitoy, Xindiston va Eronning Markaziysida joylashganligi tufayli uning turli manfaatlar tugunida ekanligini birdiradi. Mintaqaviy xavfsizlik to'g'risidagi xar qanday tadqiqot aynan geosiyosiy nuqtai-nazardan ko'lga olinishi, mintaqaning turli geosiyosiy kuchlar hamda markazlar Markaziysida joylashganligidan kelib chiqilishi kerak bo'ladi. Buning uchun esa geosiyosat fanining nazariy moxiyatini anglash, xavfsizlik kategoriyasini esa aynan geosiyosiy qoidalar asosida ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Geosiyosiy muammolar ilmiy muammo sifatida O'zbekistonda faqat mustaqillikka erishilgandan keyin o'rganila boshlandi. Ma'lumki, xar bir davlat mustaqil rivojlanish yo'liga qadam ko'yar ekan, o'z milliy manfaatlari tizimini aniq belgilab olishi, milliy xavfsizlikni ta'minlashning eng asosiy tamoyillari hamda ustuvor yunalishlarini ishlab chiqishi zarur. Buning uchun milliy yoki mintaqaviy xavfsizlik qanday tamoyillarga asoslanishini chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir. Xavfsizlik xodisasini geosiyosiy asosda tadqiq qilish O'zbekistonda ilgari olib borilmaganligi tufayli yetakchi davlatlarda bu borada olib borilgan izlanishlarga tayanishga to'g'ri keladi.

XXI asr xalqaro munosabatlarda kuchlar nisbati o'zgarib borayotgan bir sharoitda boshlandi. Butun insoniyatni, jumladan, O'zbekistonliklarni ham bugungi davrning asosiy jixatlari tashvishlantiradi. Dunyoning kiyofasi qanday tusga kirdi? Insoniyat o'z taraqqiyotining qaysi marrasiga ko'tarildi? XXI asrga kelib Yevroosiyoda tinchlik va kuchlar muvozanatini ta'minlash uchun qanday imkoniyatlar paydo bo'ldi? - degan savollar barchani uylantirishi tabiiy. Ushbu masalalarni, Markaziy Osiyo atrofida keyingi yillarda ruy bergan geosiyosiy jarayonlar orqali taxlil etish muammoni yoritishga yordam beradi. Zero, Markaziy Osiyo yirik kuchlar Markaziysidagi geosiyosiy raqobatning asosiy nuqtalaridan biri ekanligi ayon bo'lmoqda.

Markaziy Osiyodagi geosiyosiy vaziyat bu yerdagi kuchlar muvozanatiga ta'sir etuvchi eng muxim omillardan ekanligini nazardan kochirmagan xolda, bevosita bu xududdagi davlatlar qudrati, muammolari va ular olib borayotgan siyosatni taxlil etishga xarakat qilamiz. Xozirgi davrda Markaziy Osiyodan o'z iqtisodiy manfaatlarini qidirayotgan tashqi kuchlar turli usullar bilan bu yerdagi davlatlar suverenitetiga taxdid solayotganligi xech kimga sir emas.

Ular bu bilan nafaqat yoqilg'i zaxiralariga egalik qilish, balki Yevroosiyoning markazi bo'lgan "Er yuragi"ni zabt etishni ham maqsad qilgan. Bu NATOning Sharqqa siljishi, AQSHning 2007 yilning boshida e'lon qilingan Chexiya, Pol'sha va Ukrainada Raketaga Qarshi Mudofaa (RKM) tizimini o'rnatishga qaratilgan siyosatida ham ochiq namoyon bo'lmoqda.

**Markaziy Osiyo davlatlari transport yo'llari**

(umumiy uzunligi)

| Davlatlar | **Temir yo'llar** | | **Avtomobil' yo'llari** | |
|---|---|---|---|---|
| | Uzunligi, km | Zichligi, har 100 kv. km ga, km | Uzunligi, ming km | Zichligi, har 100 kv. km ga, km |
| Qozog'iston | 13600 / 64.8 | 0.50 | 190 / 46.0 | 7.0 |
| Qirg'iziston | 424 / 2.0 | 0.20 | 34 / 8.2 | 17.0 |
| Tojikiston | 547 / 2.6 | 0.40 | 30 / 7.2 | 21.0 |
| Turkmaniston | 2446 / 11.6 | 0.50 | 13 / 3.1 | 3.0 |
| O'zbekiston | 3986 / 19.0 | 0.90 | 147 / 35.5 | 32.0 |
| **Markaziy Osiyo -jami** | 21003 / 100.0 | 0.50 | 414 / 100.0 | 10.3 |

**Manba: Mirzaev R. Geopolitika novogo Shelkovogo puti. –M., Izvestiya, 2004. ma'lumotlari asosida tuzilgan**

Shunday qilib, mamlakatimiz atrofida kechayotgan geosiyosatda xudud va kuch xodisasi o'ziga xos ahamiyatga ega. Yetakchi kuchlarning Markaziy Osiyodagi geosiyosatiga qarshi tura oladigan to'zilmalarning kuchayishi, mintaqadagi davlatlarning izchil va qat'iy tashqi siyosati, Yevroosiyoga yo'nalgan aniq pozitsiyasiga ko'prok bog'liq ekani namoyon bo'lmoqda. Aks xolda bu xududda geosiyosiy vaziyat tubdan o'zgarishi va yangi strategik tartibot vujudga kelishi mumkin. Bunday xolatda milliy birligini saqlab qolgan, o'z milliy manfaatlariga tayangan xolda, aniq va izchil siyosat yuritgan davlatgina o'zluksiz rivojlanadi. xar qanday xolatda ham Yevroosiyodagi strategik muvozanatning tashqi kuchlar nazoratida qolishi maxalliy xalqlar uchun jiddiy sinov bo'ladi. Bunday murakkab xolatni oldini olish uchun mintaqadagi vaziyatning barqarorlashuviga xizmat qiladigan ShXT singari to'zilmalar faoliyatining takomillashtirish masalasiga jiddiy e'tibor karatish zarur

Mintaqaning geosiyosiy mavqeini o'rganish bir necha omillar xususida fikr yuritishni talab etadi. Mumtoz geosiyosiy nazariyaga ko'ra, xar bir mintaqaning geosiyosiy mavqei kuyidagilar bilan belgilanadi:

- geografik joylashuvi va tabiiy-iqlim xususiyatlari;
- iqtisodiy saloxiyati;

- shu xududda yashovchi xalqlarning qat’iy ravishda tabiiy-geografik omillar ta’siri ostida shakllangan mentaliteti hamda an’analari;

-ushbu xususiyatlar ta’sirida shakllangan siyosiy tuzumning tabiati. Geosiyosiy nazariyaning muxim shartlaridan biri – mintaqalarning geografik xususiyatlari, xususan, yer yuzasi, tuproq tarkibi, suv xavzalari yoki tog’larga yaqinligi kabi omillarni sinchiklab o’rganish orqali shu xududdagi xalqlar va davlatlarning siyosiy tabiatiga baxo berishdan iborat. Chunki davlatlar va elatlar xududdagi geografik va tabiiy sharoit, shuningdek, zaminning xususiyatlariga uzviy bog’liq xolda shakllanishi to’g’risidagi qoida ushbu fanning negizida yotadi. SHu urinda Markaziy Osiyoning geografik va tabiiy xususiyatlari xaqida qisqacha to’xtalib o’tish maqsadga muvofiqdir.

Suv zaxiralari Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng muxim geosiyosiy omillaridan biri xisoblanadi. Suv yo’llari asosan Amudaryo va Sirdaryo, shuningdek, unlab kichik daryo hamda o’zanlardan iborat. Shuni ta’kidlash kerakki, Markaziy Osiyoning suv zaxiralari kam bo’lishi bilan birga ularning taqsimotida jiddiy muammolar mavjud. Mintaqaning eng yirik daryolari xisoblangan Amudaryo va Sirdaryoning yillik suv okimi 78 $km^3$ ni tashkil etadi. Mintaqadagi ichimlik suvi zaxiralari asosan tog’lardagi korlar va mo’zliklardan tashkil topgan. Daryolarning aksariyati Tojikiston va Qirg’izistondagi tog’lardan boshlanadi va qolgan barcha respublikalar bilan birgalikda iste’mol qilinadi. Bu esa suv taqsimoti masalasida o’zaro muvofiqlashtirilgan sa’y-xarakatlar va muntazam nazoratni talab etadi.

Orol muammosi ham butun mintaqa ekotizimiga ta’sir ko’rsatayotgan jiddiy mintaqaviy muammo bo’lib, uning bartaraf etilishi mintaqadagi davlatlarning o’zaro izchil hamkorligini talab etmokda. Mintaqa axolisining yarmidan ko’progi (35 mln. kishi) Orol muammosi ta’sirida qolgan. Ushbu muammo XX asrda Yer yuzida ruy bergan eng mudxish ekologik faloqat bo’lgani tufayli uni bartaraf etishga nafaqat mintaqa davlatlari, balki butun jaxon hamjamiyati jalb etilgan.

So’nggi 50 yil ichida Orol dengizining hajmi 8 barobarga, suv hajmi esa 13 barobarga qisqardi. Bunda vaziyatni yanada keskinlashtiradigan xatar mavjud, chunki Qirg’iziston va Tojikiston Rog’un GES (balandligi 335 m.) va Qambarota GES (275 m.) kabi gidroelektrstantsiyalari qurilishi hisobiga o’zidagi energiya salohiyatini oshirishga intilmoqda.

**Markaziy Osiyo davlatlari bo’yicha suv resurslarining taqsimlanishi ($km^3$/yil)**

| Mamlakatlar | Amudaryo havzasi | | Sirdaryo havzasi | | Balxash ko’li havzasi | | Issiqko’l havzasi | | Jami | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | $km^3$ | % | $km^3$ | % | $km^3$ | % | $km^3$ | % | $km^3$ | % |
| Qozog’iston | - | - | 4.5 | 9.6 | 23.8 | 98.8 | - | - | 28.3 | 19.3 |

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qirg'iziston | 2.0 | 2.8 | 34.0 | 72.8 | 0.3 | 1.2 | 3.7 | 100.0 | 40.0 | 27.2 |
| Tojikiston | 62.9 | 86.9 | 4.1 | 8.8 | - | - | - | - | 67.0 | 45.6 |
| Turkmaniston | 2.8 | 3.8 | - | - | - | - | - | - | 2.8 | 1.9 |
| O'zbekiston | 4.7 | 6.5 | 4.1 | 8.8 | - | - | - | - | 8.8 | 6.0 |
| JAMI | 72.4 | 100.0 | 46.7 | 100.0 | 24.1 | 100.0 | 3.7 | 100.0 | 146.9 | 100.0 |
| Jamiga nisbatan, % | 49.3 | | 31.8 | | 16.4 | | 2.5 | | | 100.0 |

**Jadval www.asiastrategy.ru sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.**

Markaziy Osiyo iqtisodiy jixatdan ham ulkan zaxiralarga ega ekani ma'lum. Mintaqaning iqtisodiy saloxiyati uning geosiyosiy ahamiyatini belgilovchi eng muxim omillardan xisoblanadi. Shu tufayli mintaqa iqtisodiy saloxiyatining geosiyosiy ta'sir doirasiga tortilishi mumkin bo'lgan jixatlariga nazar tashlash joiz.

Boshqacha aytganda, xozirgacha Markaziy Osiyoga asosan xavo yo'llari orqaligina bemalol kirish mumkin. Mintaqaning Xitoy, Xindiston, Eron va Rossiya Markaziysida joylashgani yetakchi davlatlarning ushbu xudud markaziga yunalish uchun o'ziga xos murakkabliklar tug'diradi. Chunki tabiiy zaxiralardan foydalanish, neft' va gaz quvurlarini biror bir yunalish orqali ochiq dengiz portlariga olib chiqish uchun bir nechta davlat xududidan o'tish va buning uchun yetakchi transmilliy kompaniyalari bilan shartnoma to'zgan xolda amalga oshirishga to'g'ri keladi. Kolaversa, bunday loyixalar yetakchi davlatlar manfaatlarining to'qnashuviga olib kelmagan taqdirdagina kutilgan samara berishi mumkin.

Ma'lumki, dunyodagi eng yirik neft' va gaz zaxiralari Kaspiy dengizi tubi va atrofida, ayniksa, Tengiz va Korachiganoq konlarida joylashgan. Shu bois dunyodagi yetakchi davlatlar bir necha yillardan buyon Kaspiy dengizi ostidagi neft' zaxiralarini o'zlashtirish uchun keskin ko'rash olib borayotgani mintaqa atrofida turli "siyosiy uyin"lar uyushtirayotgani bu xududdagi vaziyatni izdan chiqarmoqda.

## Adabiyotlar ro'yxati:

1.Martin Jones, Rhys Jones, Michael Woods. An introduction to political geography: space, place and politics. Routledge. London and New-York, 2004.

2.Голубчик М.М. Политическая география мира. -Смоленск, 1998

## Qo'shimcha adabiyotlar

3.O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

4.Mirziyoyev SH.M.Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.:O'zbekiston, 2017.

5.Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- T O’zbekiston 2017.

6.Мангейм Д., Рич Р. Политология: методы и исследования. -М., 1999

**Internet saytlar:**

7.www.Ziyo.net.

## 10-amaliy mashg’ulot: O’ZBEKISTONNING YAQIN HORIJ DAVLATLARI BILAN SAVDO-IQTISODIY ALOQALARINING STATISTIK TAHLILI

**Maqsad:** Talabalarda O’zbekistonning yaqin horij davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarining haqida bilim va ko’nikmalarini shakillantirish.

***Tayanch tushunchalar (kalit so’zlar):*** tashqi iqtisodiy aloqalar, siyosiy karta**,** ma’muriy-hududiy tuzilishi, siyosiy-hududiy tarkibi**,** geografik o’rin, mezosiyosiy geografik o’rin, mikrosiyosiy geografik o’rin, ma’muriy-siyosiy chegaralari, davlat chegaralari, davlat tuzumi.

**Amaliy mashg’lot jihozi**: O.Abdullaev.” Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti –Toshkent-2009 yil,O’zbekiston atlasi, yozuvsiz karta, amaliy mashg’ulot daftari.

**Amaliy mashg’ulot topshiriqlari:**

1. Ma’ruza va adabiyotlardan foydalanib amaliy mashg’ulot daftariga Tashqi iqtisodiy aloqalarning axamiyati va uning nazariy asoslari xamda geografik jihatlari haqida yozma tavsif berilsin.

2. O‘zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalari kartasini ishlang.

3.O‘zbekistonning yaqin (MDH) va uzoq xorij davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalari chizmasini al’bomda aks ettiring va tahlil qiling.

4.Yozuvsiz kartaga O’zbekistonning jaxon bozori bilan tiranzit aloqalari chizmasini ishlash

5.Bajarilgan ishdan foydalanib, O‘zbekistonistonning iqboldagi tashqi iqtisodiy aloqalaridagi o’zgarishlari haqida yozma tavsif berish




1.3.2-расм. Ўзбекистон Республикасининг ташқи иқтисодий алоқалари




**2.4.1 - расм. Ўзбекистон Республикасининг жаҳон бозорлари билан транзит алоқалари**

*Манба: Ўзбекистон транспорт ва транспорт коммуникациялари уюшмаси маълумотлари / www.uztranscom.uz*



**Respublikamiz tashqi iqtisodiy aloqalarida transport kamunikatsiyasining o'rni**

Respublikamiz tashqi iqtisodiy aloqalarida transport kamunikatsiyasining o'rni alloxida axamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi, Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari qatori, xalqaro kommunikatsiyalar tizimini rivojlantirish, muqobil *transport yo'laklari* tashkil etishni o'z milliy manfaatlarini ta'minlash strategiyasida birinchi o'ringa qo'ymoqda. Transport yo'lagi – oddiy temir yo'l tarmog'i emas. U transport infratuzilmasi bilan bir qatorda, o'zaro bog'langan va bir-birini ta'minlovchi unsurlar, chunonchi: shahar aglomeratsiyalari, intensiv qishloq xo'jaligi, sanoat va servis zonalari, telekommunikatsiyalar va moliya muassasalari, energiya va suv ta'minoti, mehnat resurslari majmuini o'z ichiga olgan murakkab tizimni tashkil etadi. Bu, shuningdek, xalqaro transportda yuk va yo'lovchi tashishni tartibga soluvchi qonunlar va normativ hujjatlarning *unifikatsiya qilingan* tizimi hamdir. Nihoyat, transport yo'lagini shakllantirish transport tizimi – temir yo'l izlari orasining kengligi, yuklash-yuk tushirish operatsiyalarining ko'rsatkichlari va hokazolarning yagona standartlarini joriy etishni nazarda tutadi. Loyiha kelajakka yo'naltirilgan (*forward-looking industry*), ya'ni yangi korxonalar, ishlab chiqarishlar va ish joylari tashkil etishga mo'ljallangan. SHu bois transport yo'lagi kontseptsiyasiga nafaqat transport yo'llari loyihasi, balki *«taraqqiyot yo'li»* dasturi sifatida qaraladi

-Bugungi kunda O'zbekiston jahon bozorlariga chiqish uchun quyidagi asosiy transport yo'nalishlaridan foydalanmoqda:

-Vladivostokka (Toshkentdan qayta yuklash portigacha bo'lgan masofa – 8,730 km);

- Shanxayga Xitoy hududi orqali (6,195 km);
- Murmanskiy(5,652 km);
- Sankt-Peterburgga (4,047 km);
- Brestga (4,257 km);
- Odessaga (4,236 km);
- Novorossiyskiy (3,558 km);
- Batumiga TRASEKA trassasi bo'ylab (2,950 km);
- Istambulga Eron orqali (4,985 km);
- Bandar-Abbosga (3, 885).

**O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish istiqbollari**

- mamlakat milliy iqtisodiyotining jahon xo'jaligiga integratsiyalashuv jarayonining kuchayishi;
- MDH mamlakatlari bozorlaridan uzoq xorijiy mamlakatlar, birinchi navbatda, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarga yo'nalishining rivojlanishi;

- mamlakat importitarkibida oziq-ovqat mahsulotlari, (birinchi navbatda bug'doy) va yoqilg'i-energetika resurslarining qisqarishi, tarixan g'oyat qisqa muddatda O'zbekistonning don va energetika mustaqilligiga erishishi;

- import umumiy hajmida mashina va jihozlar hissasining ortishi bilan xarakterlanadi.

- Bozor munosabatlari va xo'jalik yuritish mexanizmining obyektiv va sub'ektiv sharoitlari shakllanishi mobaynida respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga solishning ma'muriy usullaridan voz kechilib, iqtisodiy choralar orqali faoliyat olib borilmoqda.

- O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi yangi strategiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1.eksport va import operatsiyalarni markazdan boshqarishdan voz kechish;

2.davlatga zarur tovarlar eksporti va importi ustidan nazoratni kuchaytirish;

3.davlat uchun strategik muhim bo'lmagan tovarlar importini qisqartirish;

4.strategik muhim tovarlar eksportidan tushadigan valyuta daromadlari ustidan nazoratni kuchaytirish;

5.chet el investitsiyalarini jalb qilish va eksport faoliyatini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini har tomonlama rag'batlantirish.

**Adabiyotlar ro'yxati:**


1.Martin Jones, Rhys Jones, Michael Woods. An introduction to political geography: space, place and politics. Routledge. London and New-York, 2004.

2.Голубчик М.М. Политическая география мира. -Смоленск, 1998


**Qo'shimcha adabiyotlar**


3.O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

4.Mirziyoyev SH.M.Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.:O'zbekiston, 2017.

5.Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- T O'zbekiston 2017.

6.Мангейм Д., Рич Р. Политология: методы и исследования. -М., 1999


**Internet saytlar:**


7.www.Ziyo.net.


***Tayanch tushunchalar (kalit so'zlar):*** siyosiy karta**,** ma'muriy-hududiy tuzilishi, siyosiy-hududiy tarkibi**,** geografik o'rin, mezosiyosiy geografik o'rin, mikrosiyosiy geografik o'rin, ma'muriy-siyosiy chegaralari, davlat chegaralari, davlat tuzumi, siyosiy ma'muriy tuzilma

## 11-amaliy mashg’ulot:
## IXTIYORIY OLINGAN REGION VA MAMLAKATLARNING SIYOSIY-GEOGRAFIK TAHLILI.YEVROPA VA OSIYO MAMLAKATLARINING SIYOSIY XARITASINI CHIZISH VA O’RGANISH

**Maqsad:** Talabalarda Yevropa va Osiyo mamlakatlari siyosiy xaritasini shakillanishi va rivojlanishi haqida bilim va ko’nikmalarini shakillantirish.

***Tayanch tushunchalar (kalit so’zlar):*** Yevropa va Osiyo mamlakatlari, siyosiy karta**,** ma’muriy-hududiy tuzilishi, geografik o’rin, mezosiyosiy geografik o’rin, mikrosiyosiy geografik o’rin, ma’muriy-siyosiy chegaralari, davlat chegaralari, davlat tuzumi,

**Amaliy mashg’lot jihozi**: O.Abdullaev.” Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti –Toshkent-2009 yil,Yevropa va Osiyo siyosiy kartasi, yozuvsiz karta, amaliy mashg’ulot daftari.

**Amaliy mashg’ulot savollari**

1.Ma’ruza va adabiyotlardan foydalanib amaliy mashg’ulot daftariga Yevropaning rivojlangan davlatlari haqida yozma tavsif bering.

2.Shimoliy,Markaziy, Janubiy Yevropa mamlakatlarining joylashgan o’rnini geosiyosiy jixatdan tahlil qilish

3.Ispaniyaning iqtisodiyotiga iqtisodiy- geografik xususiyatlari chizmasini ishlash va tahlil qilish

4.Berilgan kartadan foydalanib, yozuvsiz kartaga Yevropaning siyosiy kartasini ishlang.

5. G’arbiy,Markaziy va Janubiy, Sharqiy Osiyo mamlakatlarining joylashgan o’rniga geosiyosiy tavsif bering

6. Atlasdan foydalanib, yozuvsiz kartaga Osiyoning siyosiy kartasini ishlang.





**Adabiyotlar ro'yxati:**

1.Martin Jones, Rhys Jones, Michael Woods. An introduction to political geography: space, place and politics. Routledge. London and New-York, 2004.

2.Голубчик М.М. Политическая география мира. -Смоленск, 1998

**Qo'shimcha adabiyotlar**

3.O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

4.Mirziyoyev SH.M.Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.:O'zbekiston, 2017.

5.Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- T

6.Мангейм Д., Рич Р. Политология: методы и исследования. -М., 1999


## 12-amaliy mashg'ulot: IXTIYORIY OLINGAN REGION VA MAMLAKATLARNING SIYOSIY-GEOGRAFIK TAHLILI. AFRIKA, LOTIN AMERIKA, AVSTRALIYA VA OKEANIYA MAMLAKATLARINING SIYOSIY XARITASINI CHIZISH VA O'RGANISH

**Maqsad:** Talabalarda MarkaziyOsiyodavlatlariningmintaqaviysiyosativamintaqastrategiyalarihaqida bilim va ko'nikmalarini shakillantirish.

***Tayanch tushunchalar (kalit so'zlar):*** Yevropa va Osiyo mamlakatlari, siyosiy karta**,** ma'muriy-hududiy tuzilishi, geografik o'rin, mezosiyosiy geografik o'rin, mikrosiyosiy geografik o'rin, ma'muriy-siyosiy chegaralari, davlat chegaralari, davlat tuzumi

**Amaliy mashg'lot jihozi**: O.Abdullaev." Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti –Toshkent-2009 yil,Yevropa va Osiyo siyosiy kartasi, yozuvsiz karta, amaliy mashg'ulot daftari.

**Amaliy mashg'ulot savollari**

1.Ma'ruza va adabiyotlardan foydalanib Markaziy Osiyo davlatlarining dunyo sivilizatsiyasida tutgan o'rni va joylashgan o'rniga baxo berish

2. Berilgan kartadan foydalanib, yozuvsiz kartaga Markaziy Osiyosiyo siyosiy-mamuriy kartasini ishlash.

3. Ma'ruza va adabiyotlardan foydalanib amaliy mashg'ulot daftariga Markaziy Osiyo davlatlarining geosiyosiy siyosati haqida yozma tavsif berish

4. Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi iqtisodiy aloqalari va undagi yangi bosqichlarni o'rganib chiqish.

5. Markaziy Osiyo davlatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va demografik muommolari xaqida yozma tavsif berish.

**Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy siyosatlari va mintaqa strategiyalari**

